

جدید

2025-yil 4-iyul
№ 27 (79)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishdada birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

ADABIY TIL MAKTABI

QAYERDA?

“...Adabiyotni insonshunoslik deyigan bo'lsak, yozayotgan kitobimiz inson haqida qandaydir xulosa berishi kerak. O'quvchi mutolaa so'ngida nimanidir anglab yetsa, mana shunda asarning umri uzayadi...”



(4-sahifada o'qing.)

O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON O'ZARO DO'STLIK MUNOSABATLARI YUKSAK DARAJAGA KO'TARILDI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 2-iyul kuni davlat tashrifi bilan Boku shahriga bordi.

“Zagulba” qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Oliy martabali mehmonni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev samimiy kutib oldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev tor doirada uchrashuv va Oliy davlatlararo

kengashning ikkinchi yig'ilishini o'tkazdilar.

Boku shahrida bo'lib o'tgan muzo-karalar yakunida ikki davlat rahbarlari Oliy davlatlararo kengashning ikkin-chi yig'ilishi qarorini qabul qildilar. Shuningdek, qator ikki tomonlama hujjatlar almashildi.

Tashrif doirasida Boku shahrida “O'zbekiston” bog'iga tamal toshi qo'yishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng mamlakatimizning Boku shahridagi elchixonasi yangi binosining ochilish marosi-mi o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ishtirok etdilar. Yetakchilar

ramziy tasmani kesib, diplomatik vakolatxonaning yangi binosini tantanali ravishda ochdilar.

Tashrifning ikkinchi kunida Boku shahrida Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev mangu qo'nim topgan Faxr xiyoboniga tashrif buyurildi. Prezidentimiz Haydar Aliyev qabriga gul qo'yib, Ozarbayjonning buyuk davlat va siyosat arbobi xotirasiga ehtirom ko'rsatdi. So'ng O'zbekiston Rahbari Boku shahridagi G'alaba bog'iga tashrif buyurib, Ozarbayjon vatanparvarlari xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Davlat tashrifi doirasida Rahbarimiz Fuzuliy shahriga keldi. Safar davom etmoqda.

O'ZA

VATAN MANZUMASI

Ravoj O'TAR

YURT ISHQI

Barmog'ingga kirsak jing'il tikoni,
Silqib tomgan tomchi qoningda Vatan.
Madoring qurisa yoz, ayoz oni,
Jonpanoh har ikki oningda Vatan.

Aziz o'z elingning saksovluzori,
Qirg'ovuli do'sting, jayroni do'sting.
Ko'zingga to'tiyo chillaki qori,
Yozda shivillagan boroni do'sting.

Bobong teri tomgan aziz tuproqdan
Zuvalang qorilgan, joning chevrilgan.
Manglayi yarqiroq qoraqalpoqsan,
Armoni ushalib, baxtga evrilgan.

Ajiniyoz tori tortilgan tarang,
Berdaq she'rin kuyga solmoqda to'rg'ay.
Ustyurt tomonlardan taralgan ohang
Bugun Zo'yovonda jaranglab turgay.

Eh-he-hey, do'stlarim, bovuylarim-ov,
Aqchako'l muntazir to'lqin urmoqda.
Yashnayotgan Mo'ynoq, yangi Bo'zatov,
Qo'noqqa intizor bu xushbaxt chog'da.


Agar so'rasalar bu tole nedar,
Kimdir u hayratga solgan jahonni?
Javob shu: kuch oldim uyg'ongan eldan,
Quchoqladim Yangi O'zbekistonni!

ILM YO'LI

OLIM BO'LSANG, OLAM SENIKI

O'ttiz yildan ziyod umri dunyoning eng mashhur ilmiy markazlaridan biri – Dubna birlashgan yadro tadqiqotlari institutida (Rossiya) o'tayotgan o'zbek olimi, fizika-matematika fanlari doktori Avazbek Nosirovni olim sifatida emas, inson sifatida kashf etishga harakat qildik. Avazbek Nosirov 1982-yildan buyon yadro-yadro to'qnashuvidagi jarayonlar mexanizmi bo'yicha ilmiy faoliyat olib boradi.

1987-yili Dubnada Birlashgan yadro tadqiqotlari institutida “Og'ir ionlar bilan to'qnashuv reaksiyalarida ko'p nuklonli o'tishlar” mavzusida nomzodlik va 2004-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida “Og'ir ion reaksiyalarida ko'p nuklonli o'tishlar va qo'shilish-bo'linish jarayonlarini



yarim mikroskopik tavsiflash usuli” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Avazbek Nosirov chet ellik olimlarning eksperimentlari natijasini tahlil etishda ular bilan hamkorlik qiladi. Italiyaning Messina universiteti fizika fakulteti olimlari professor Jiorjio Jiardina, doktor Juzeppe Mandolio, Germaniyaning Yustus Libix universiteti olimlari, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston olimlari bilan ham xalqaro hamkorlikda ishlaydi.

(Davomi 2-sahifada.)

TAASSUROT



BIZDAN QAY ISH LOZIM BO'LSA, BARCHASIGA TAYYORMIZ!

Davlat rahbarining xalq bilan, xususan, yoshlar bilan muloqoti soni yildan yilga ortib bormoqda. Navbatdagi uchrashuv 30-iyun – Yoshlar kuni bayrami munosabati bilan poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida o'tkazildi. Global yoshlar forumining yopilish marosimi ham ushbu kunga to'g'ri kelgani tadbirga alohida mohiyat bag'ishladi.

Uchrashuv boshlanishidan oldin yurtimizning turli nuqtalaridan yig'ilgan yoshlar o'zaro tanishdik. Do'st-birodar, o'rtoq-dugona bo'ldik. O'z hududimizdagi yangiliklarni bo'lishdik. Buni qarangki, har birimizda aytasa arzigulik yutuq va o'zgarishlar yetarlicha ekan.

Ko'p o'tmay davramizga davlat va jamoat arboblari, olimlar, shoirilar, sportchilar, tadbirkorlar va xorijlik mehmonlar kelib qo'shildi. Barchamiz qiziqishlarimizdan kelib chiqib o'z sohasining professionalarini suhbatga tortdik, savollarimizga javob oldik. Katta ekranda esa 14 ta hududdagi studiyalardan qatnashayotgan do'stlarimiz ko'rinib turibdi.

Va nihoyat, geometrik aniqlikda terilgan o'rindiqlarga joylashdik. Shu payt boshlovchining jarangdor ovozi yangradi:

“Yangi O'zbekistonning aziz yoshlari! Kutib olamiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti...”

(Davomi 2-sahifada.)

TUTASH TAQDIRLAR

ALASH QAHRAMONI

Taniqli jamoat arbobi, ma'rifatchi, “Alash” partiyasi a'zosi, jurnalist va dramaturg Bilol Suleyevning suronlar ichida o'tgan qisqa umriga nazar tashlagan odam uning sermahsul faoliyati va achchiq qismatidan mutaassir bo'ladi.

U qo'shni qozoq diyorida tashkil qilingan Alash o'rda hukumatida hurriyat, milliy davlatchilik uchun fidokorona xizmat qildi. Ma'rifatchi pedagog sifatida ko'plab shogirdlar tarbiyaladi, darslik va qo'llanmalar yaratdi. Quyida 45 yoshida erk va ma'rifatchi yo'lida qurbon etilgan qozoq o'g'loni hayotiga razm solamiz.

Bilol Suleyev 1893-yil hozirgi Qozog'iston Respublikasining Olmaota viloyati Sortepa qishlog'ida dunyoga kelgan. Mahalliy chorvador boylardan sanalgan otasi Suley hoji Meyliuli – qozoqlarning nayman urug'iga mansub bo'lib, ovul bolalariga muallimlik qilgan ma'rifatchi inson edi.

MULOHAZA



Javonda “qariyotgan” to'nlar

Yetti yil oldingi gap. Qo'shni elatdagi o'rta maktabning yuqori sinf o'quvchi yigitlari iltimos bilan kelishdi: “Maktabimizda hazrat Navoiy va Bobur Mirzo tavalludlari kuniga sahna ko'rinishi tayyorlayapmiz. Sizda zarto'n bor deyishdi... Berib tursangiz”.

Haqiqatdan ham kiyim javonimda turli sana, tadbir, to'ylarda yelkamga tashlangan zar choponlar bor edi. Ozmas – naq o'n ikkita.

Hazrat Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur siymosida chiqadigan yigitlar ular orasidan o'z bo'ylariga mosini tanlashdi.

E'tibor berdimki, vaqt o'tishi bilan to'nlarni chang bosgan, tusini yo'qotgan.

(Davomi 8-sahifada.)



Bilol Suleyev (1893–1938)

Bilol Suleyev 1908–1911-yillari Yesen-gul Mamanulining “Mamaniya” jadid maktabida o'qiydi.

(Davomi 7-sahifada.)

Behbudining 1907-yilda Rossiya dumasiga yoki Musulmonlar fraksiyasiga topshirgan “Turkiston madaniy muxtoriyati” deb nomlangan loyihasini o'qib, moziydagi muhim voqe'larga sababchi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlardan xabardor bo'lamiz. Loyihaning bir bandida shunday yoziladi: “Turkistonga ko'chmanchilarning olib kirilishi to'xtatilsin”.

MA'RIFAT LIBOSIDAGI OZODLIK

Har gal uni o'qiganimda, bu o'ta yirik loyiha uchun Behbudiy qancha izlangan, fikrlagan, maslahatlashgan ekan, deb o'ylab qolaman. Madaniy muxtoriyat deyilgani bilan hujjatda siyosat-u iqtisod ham, din-u huquq ham – Turkiston xalqlari hayoti bilan bog'liq barcha masala o'rin olgan.

Yoki boshqa bandida “Ovropoyi Rusiya musul-monlaridan ziyodaroq avtonomiyani Turkistong'a berilmog'i lozimdur”, deydi va bu fikrni “turkistonlilar hanuz doxilana o'zini o'zi idora edar va Ovropoyi Rusiyadagi qardoshlarimizdan ixtiyorlidurlar”, deb asoslaydi. Turkiston nisbatan ozodroqdir, demoqda Behbudiy. Bu fikri uchun mustamlakachilar nega unga e'tiroz bildira olishmagan, nega uni jazolashmagan? Negaki, Buxoro amirligi, Xiva xonligi qog'ozda mustaqil davlatlar hisoblangan. Aslida unday emasligini Behbudiy bilsa-da, vaziyatdan huquqiy jihatdan ziyraklik bilan foydalangan.

Loyihadagi “Turkiston maktablari va madrasalari hukumat nazoratidan ozod bo'lsun” talabini olaylik. Maktab va madrasalarning chor hukumati nazoratida bo'lganligi haqidagi hujjatlar arxivlarda turibdi. Mustamlakachilar mahalliy xalqning savodli bo'lishiga mutlaqo qarshi bo'lishgan.

(Davomi 5-sahifada.)





OLIM BO‘LSANG, OLAM SENIKI

Boshlanishi 1-sahifada.

U dunyodagi eng nufuzli 20 ta ilmiy jurnalning retsenzenti. Olimning ilmiy kashfiyoti 62 yildan buyon dunyo fizik olimlarining yadrolar to'qnashganda to'la qo'shila olmasligi haqidagi tasavvurini o'zgartirdi.

U turli yadro fizikasi markazlarida olingan tajriba natijalarini o'zimizning olimlar yaratgan nazariy fizika modeli doirasida tushuntirib bera oldi. Bu haqidagi ilmiy maqola 2023-yil bahorida fiziklarning nufuzli "Physics Letters B" jurnalida chop etildi. U Rossiyadagi Birlashgan yadro tadqiqotlari institutida 2023-yilning birinchi yarmidagi eng yaxshi nazariy maqola deb tan olindi.

Avazbek Nosirov har yili ikki marta O'zbekistonga kelib, yosh olimlar bilan ishlaydi. U Birlashgan yadro tadqiqotlari institutining ilmiy tadqiqotlar bo'yicha 1992, 2004, 2016-yillardagi oliy mukofotiga munosib ko'rilgan.

KATTA ARAVA QAYERGA YURSA...

Otam uzoq yillar kolxozda rais bo'lgan. Erta ketib, kech qaytsa-da, o'qishimiz, xulqimiz, muammolarimiz haqida onamdan surishtirardi. Onam farosatli, tadbirli, murosali ayol bo'lib, biror marta birovning ko'nglini og'ritganini eshitmaganman. Ammo tarbiya borasida qattiqqo'l bo'lib, kuchli intizom talab qilardi bizdan. Endi, o'n ikki bolaning yettisi o'g'il bo'lgandan keyin busiz bo'lmaydi. Shuning uchun ham hammamiz maktabni oltin medal bilan bitirganmiz. Uy yumushlarini el qatori qilardik, shuning barobarida dars tayyorlash va kitob o'qishga ham vaqt qoldirardi onamiz. Oilamizda ilimga, ilmi kishilarga hurmat kuchli, ota tarafdand ham, ona tarafdand ham bobobuvilarim o'qimishli, ziyoli kishilar bo'lgan. Nazira buvim "Bolan, hali bir kuni kitob chiqarsang, bir chetiga mening ham ismimni yozib qo'y", derdi hazil aralash.

Otam rais bo'lsa-da, o'rtahol yashardik. U kishining hayotdagi halolligi va birovning haqidand hazar qilishga havas qilardim. O'zim ham ilmiy faoliyatimda shu ikki fazilatga amal qilishga harakat qilaman.

BULOQBOSHIDAN DUBNAGACHA

"Suyunchi" filmidan futbol chog'ida deraza sinishi sahnalari esingizdami? Biz ham qo'shni-qarindosh bolalar bilan to'p tepib, necha marta deraza ko'zlarini sindirganmiz. Ammo onajonim indamasdilar. U paytlar bola ko'ngli moddiy matohlardan ustun turganmikan, deyman-da.

Xonamizdagi javonda Kaykovusning "Qobus-noma"si turardi. Bo'sh qolsam kelgan joyidan o'qib ketaverardim. Endi o'ylab qarasam, o'g'il bolalar tarbiyasi uchun muhim bo'lgan bu kitob tasodifan ko'z oldimizda turmagan ekan.

Sakkizinchi sinfigimda ilk bor fizikadan olimpiadaga qatnashib, tuman va viloyat bosqichlarida 1-o'rinni, Respublika bo'yicha 3-o'rinni egallaganman. Birinchi marta Novosibirsk shahrida o'tkazilgan Butunittifoq fizika olimpiadasida faxrli o'rinni egallaganimda onam judayam sevingan.

Bunda fizika o'qituvchimi Toshtemir Umarovning hissi katta bo'lgan. Har kuni darsdan keyin domlam bilan shug'ullanardik, u kishi murakkab masala kitoblardan foydalanishni o'rgatardilar. Shu tariqa maktabni oltin medal bilan bitirib, imtiyoz asosida Toshkent davlat universitetining fizika fakultetiga o'qishga qabul qilinganman.

YOSHLAR VA FIZIKA

Hozirgi yoshlarning ayrimlari ilm olishning oson yo'lini qidiradi, hech bir masala ustida uzoq bosh qotirmaydi, ma'ruzaga ham doskadagi tayyor yechimni rasimga tushirib olib tayyorlanadi, internetdan qidiradi, xullas, mehnat qilishga erinadi. Eng oqsaydigan tarafi: til bilmaydi, o'rganishga harakat ham qilmaydi. Hammasi ham shunday emas, lekin shunaqalari ko'pday ko'rinadi.

Sakkizinchi sinfda Butunittifoq fizika olimpiadasi g'oliblaridan bo'lganim uchun meni Moskvadagi fizika-texnika institutining sirtqi maktabiga qabul qilishgan. Har chorak rus tilida fizika, matematika va geometriyadan nazorat ishlari jo'natishardi. Boshida masalalarni tushunishga qiynalganman, keyin sekin-asta rus tilini mustaqil o'rgandim.

Onamning ishonchi, alqashlari kuch berib, 1976-yili o'qishimni ToshDUdan Moskva davlat universiteti fizika fakultetiga ko'chirdim. Musofirlikda yurganimda doim o'zimga o'zim "Seni O'zbekistonda ota-onang, ukalaring, qarindoshlaring, do'stlaring kutishyapti, sendan umid qilishyapti", deya dalda berardim.

Bugun ba'zilar chetga chiqsam maza qilib yuraman, nazorat bo'lmaydi, o'qishdan, ishdan ortganimda ayshimni suraman, deb o'ylaydi. Ba'zilar shunday qiladi ham. Avvalo, odam o'zini o'zi nazorat qilishi kerak. Aql-hushi joyida, irodasi

baquvvat odamga boshqaning tanbeh-tergovi kerak emas.

Talabalikda bo'sh vaqtim bo'lmasdi. Sport bilan shug'ullanib, yugurar edim, qishda chang'i uchardim. O'sha paytda olingan hayotiy dinamika hali-hali davom etyapti. Atrofimdagi insonlarning, hamqishloqlarim va qarindoshlarimning menga bo'lgan ishonchini oqlashga harakat men uchun doim motivatsiya beradi.



Bu intilishning mevalari juda ham shirin: avvallari natija a'lo baholar bo'lsa, keyinchalik ilmiy maqolalar va yechilayotgan ilmiy muammolar, hozir esa men olib borayotgan tadqiqotlar natijalarining dunyo olimlari tomonidan tan olinishi va ularning hamkorlik takliflari, atrofimda ilimga chanqoq shogirdlarimning borligi va ularning muvaffaqiyatlaridir.

OILAM

Shu darajaga yetishimda ota-onamning tarbiyasi, mehri, tug'ilib-o'sgan muhitim, ustozlarimning beminnat xizmati bo'lsa, keyingi hayot yo'limda o'zinni topishim, ilm qilishim, bu yo'lda nimagadir erishishimda turmush o'rtog'im, oilamning o'rni beqiyos. Chunki xonadonimdagi xotirjamlik, iliqlik, yorug' aura – hammasi ayolim Masturaxon bilan bog'liq.

Olimning ayoli bo'lish oson emas. Buning uchun sabr-toqat, bag'rikenglik va oilaga cheksiz muhabbat kerak. Uyingizda har kuni janjal bo'lsa, "Pull! Pull!" deb qosh chimirib, qovog'i ochilmaydigan xotin ostonada kutib tursa, nafaqat ilmdan, balki hayotdan bezib ketadi odam.

Baxtinga borimga ham, yo'g'imga ham chidab, qo'llab-quvvatlaydigan, ilm qilishimga sharoit yaratib beradigan ayol uchragan menga. Chunki arzimagan maoshga ko'nish, ijarada yashash osonmas.

Ikkita o'g'lim bor. To'ng'ichim Behzodjon Jahon iqtisodi va diplomatiyasi universitetiga kirib Yaponiyaga grant yutdi va o'sha yerga o'qishga ketdi. Hozir Yaponiyada yashaydi. Kelinimiz Manatsu yapon millatiga mansub, ammo o'zbekka o'xshaydi, qadriyatlarimiz, e'tiqodimizni qabul qilgan. O'zi ham, farzandlari ham o'zbekchada binoyidek gapiradi.

Ikkinchi o'g'lim Nusratillo mening sohamda o'qidi. Institutni bitirib, u ham xorijga ishga taklif qilingan.

VATANGA QAYTISH

1994-yildan Dubnada ilmiy faoliyat bilan bandman. Hanuz fuqarolik olish haqida o'ylagan emasman. Bir yilda ikki marta xizmat safari bilan O'zFA Yadro fizikasi institutida talabalarim bilan shug'ullanib, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib ketaman. Bu yildan boshlab ishlagan davrim uchun haq to'lashyapti. Bu mamlakatimizda olimlarga nisbatan qarashlar o'zgarganini, ilm qadrlanayotganini ko'rsatadi, shuning uchun alohida ta'kidlayapman. Bu orada bir necha bor butunlay qaytib kelib ishlash taklifi tushdi. Biroq, o'ylaymanki, men chetda ishlab, izlanib, xalqim uchun ko'proq foyda keltiraman.

Bittagina armonim bor: ota-onamning xizmatida muqim bo'la olmadim. Biroq qo'limdan kelganicha duolarini olishga harakat qildim. Olamdan o'tib ketishganiga ham ancha bo'ldi. Doim teran nigohlarini his qilib turaman.

Anglab yetganim shuki, qayerda bo'lmaylik, o'z ilimiz, o'z hunarimiz bilan Vatan uchun, vatandoshlar uchun qo'limizdan kelganicha naf keltirishimiz kerak ekan. Yurtga har kelganimda, bitta bo'lsa-da, shogird tarbiyalab, ko'nglida ilimga muhabbat uyg'ota olsam, hech bo'lmasa, fikrini o'zgartira olsam, bu men uchun juda katta sharaf bo'ladi.

Shahnoza ROFIYEVA yozib oldi.



BIZDAN QAY ISH LOZIM BO‘LSA, BARCHASIGA TAYYORMIZ!

Boshlanishi 1-sahifada.

Butun zal oyoqqa qalqdi. Ko'zlar sahnaga qadaldi. Oramizda Davlat rahbarini televideniye yoki internetda emas, hayotda ilk bor ko'rib turgan yigit-qizlar ko'p edi. Ularning nigohidagi mehr va xursandchilikdan davramiz fayziga fayz qo'shildi, go'yo mehr nuri bilan zal yana ham charog'on bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev butun O'zbekiston yoshlarini bayram bilan samimiy muborakbod etdi.

Shundan so'ng, Yurtboshimiz yoshlar uchun manfaatli bo'lgan tashabbuslar va yangi imtiyozlarni e'lon qildi. Ularni sanashdan oldin nutqdagi bir gapga e'tiboringizni qaratam: **"Aziz o'g'il-qizlarim! Hozirgi vaqtda dunyo qanday notinch, qanday murakkab bo'lib borayotganini ko'rib turibmiz. Tinchlik – eng buyuk ne'mat, inson qadri va adolat – eng oliy qadriyat ekanini har qachongidan ham chuqur his etmoqdamiz!"**

Darhaqiqat, bugun vayronkor kuchlar yoshlar qo'liga ajal qurollarini berayotgan yoki ochlik va yupunlikdan boshqa narsa berolmayotgan bir paytda bizda har uch-to'rt oyda yoshlar uchun yangi imkoniyatlar berilmoqda.

Natijada, O'zbekiston BMTning "Yoshlar – 2030" strategiyasini jadal amalga oshirayotgan 10 ta davlat qatoriga kirdi.

2024-yilda yurtimiz yoshlari TOP-500 talik oliygohlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi. Bugungi kunda 30 nafar yosh dunyoning TOP-10talik oliygohida, 500 nafari TOP-100 va 1 ming 500 nafari TOP-300 talikdan joy olgan nufuzli universitetlarda tahsil olishmoqda.

Futbol bo'yicha 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarimiz Osiyo chempioni bo'ldi, O'zbekiston milliy terma jamoasi ilk bor Jahon chempionatiga yo'llanma oldi.

261 ta yoshlar tashkil qilgan korxona-niing yillik aylanmasi 100 mlrd. so'mdan oshdi.

2025-yilning 6 oyida xalqaro fan olimpiadalarida 166 ta medal qo'lga kiritildi.

"Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 325 ming yosh IT sohasiga o'qitildi.

O'tgan yili 150 mingdan ziyod yosh xalqaro til sertifikatlari oldi, bu 2023-yilga nisbatan 2 baravar o'sish degani.

Ushbu ko'rsatkichlarni ko'tarish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida endilikda har yili 3 ming nafar salohiyatli o'quvchi dunyoning nufuzli universitetlariga tayyorlanadi.

STEM sohalarini uchun "El-yurt umidi" kvotalari bir necha barobar oshirildi.

TOP-300 oliygohga kirgan yoshlarga banklar tomonidan 20 ming dollar imtiyozli kredit berildi.

"Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi ishga tushirildi.

5 yilda barcha maktab bitiruvchilari sun'iy intellekt sohasida bilimli bo'ladi.

2025-yilda 50 ming nafar qiz "Raqamli avlod qizlari" loyihasi bilan qamrab olinadi.

Har yili yuqori sinf o'quvchilarini kasb tanlashga qiziqtirish va ko'maklashish maqsadida "Mening kasbim" respublika tanlovi o'tkaziladi.

"Kelajak liderlari" dasturiga har yili 100 nafar yosh jalb etiladi va xorijiy stajirovkaga yuboriladi.

300 million dollarlik "Yoshlar biznesi" va

"Kelajakka qadam" dasturlari orqali 240 ming yosh band etiladi.

Bular shunchaki raqam va rejalar emas. Raqamlar ortidagi mehnat va mablag' hisoblansa, O'zbekiston yoshlar uchun naqadar katta investitsiya kiritayotganini tasavvur qilish mumkin.

E'tiborlisi, nutq quruq hisobot yoki ish reja shaklida bo'lmadi. Prezidentimiz yoshlarning ko'ziga qarab, tengdosh suhbatdoshi bilan fikrlashayotgandek so'zladi. Jarayonga hududlar bilan bo'lgan muloqot, zarofatli lutflar va otalarcha pand-nasihat o'zgacha ruh bag'ishladi.

Ushbu tarixiy nutqdagi haroratli satrlardan namunalar:

"Katta-katta davlatlar, dunyoning eng nufuzli kompaniyalari bugun bizga nega ishonmoqda? Nega milliardlab dollar investitsiya kiritmoqda?"

Bu, albatta, bejiz emas. Chunki hamkorlarimiz yoshlarimizning ilm-fan, ta'lim, IT, madaniyat, san'at va sportdagi yutuqlarini ko'rib, salohiyatimizga baho bermoqda, ertangi kunimiz poydevori mustahkam ekaniga ishonch hosil qilmoqda".

"Yaqin-yaqingacha umrini paxta dalasida o'tkazgan oddiy oila farzandlari ilmda, sportda, boshqa sohalarida bunday yuksak marra-larni egallashini tasavvur qilish ham qiyin edi.

Biz yoshlarimiz uchun sharoit yaratdik, ular bundan unumli foydalanib, baland cho'qqilarni zabt etmoqda.

Birinchi va ikkinchi Renessansni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatni sizlarga bermoqda.

Ishonchim komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz. Sizlar Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!"

"Bu ishlar "kampaniyabozlik" bo'lmasligi, o'zgarishlarni har bir mahalladagi har bir yosh har kuni chuqur his qilishi zarur.

Ana shunda Yangi O'zbekistonda ta'lim olmagan, ishsiz, kasb egal-lamagan, bir so'z bilan aytganda, uyushmagan yoshlar degan tushunchalarning o'zi qolmaydi!"

"Mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ko'z qorachig'idek asrashda siz, aziz yoshlarimizga tayanamiz.

Unutmang: mustaqillik – bu shunchaki rasmiy maqom emas, balki har bir yoshga o'z taqdirini o'zi belgilash imkonini beradigan buyuk ne'mat".

"Hech qachon unutmang, far-zandlari bilimli, sog'lom, mard

va jasur, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning kelajagi, albatta, yorug' bo'ladi.

Men butun O'zbekiston yoshlari ana shunday fazilatlar egasi bo'lishini tilayman!

Ishonchim komil, biz ko'p mill-latli butun xalqimiz bilan, siz, aziz farzandlarim bilan ulug' maqsadlarimizga, albatta, yetamiz! Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda, albatta, barpo etamiz!"

Navbat bir guruh faol yoshlarga "Mard o'g'lon" davlat mukofoti hamda "Kelajak bunyodkori" meda-lini topshirishga yetdi. Taqdirlash marosimi ham samimiy va jo'shqin kayfiyatda o'tdi.

Prezidentimiz yoshlarga shunchaki nishonlarni taqib qo'ygani yo'q. Har bir laureat bilan suhbatlashdi. Ularga yana qanday yordam kerakligini so'radi. Kerak bo'lsa, ayrimlari ko'tar-gan masalalarni shu yerning o'zida hal etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Eng ta'sirli nuqtalardan biri – velosport bo'yicha Paralimpiya terma jamoasi a'zosi Fotima Saipovaga uy berilishi voqeasi bo'ldi. Bunda inson qadri-ni ulug'lash, ijtimoiy himoya bilan har kim hamma joyda shug'ullani-shi kerak degan g'oyaning amaliy ifodasini ko'rdik.

Garchi diqqat markazimizda iqtidorli tengdoshlarimiz turgan bo'lsa-da, Prezidentni mahallalardagi 167 ming nafar uyushmagan yosh, tarbiyasi og'ir va huquqbuzarlik qilgan 17 ming o'quvchi o'ylantirayotgani sezildi uch-rashuv davomida.

Shu o'rinda Davlat rahbari yangi saylangan mahalla raislariga murojaat qildi:

"Mahalladagi tinchlik, hamjihat-lik, mehr-oqibat, sog'lom muhit kinga bog'liq? Avvalo, sizlarga bog'liq.

Mahallada bitta bolaning noto'g'ri yo'lga kirishi ham favqulodda holat bo'lishi kerak. Shuning uchun, har bir bola haqida, uning taqdiri, kelajagi haqida, avvalo, sizlar ko'proq qayg'urishingiz lozim".

Odatda, muloqot o'tkaziladigan zalda stol-stul qo'yiladi. Ammo bizning sahnada faqat minbar o'rnatilgan edi. Demak, asosiy urg'u nutq va tabrikka qaratilgan ekan. Shunday bo'lsa ham Prezidentimiz tik oyoqda turib yoshlar bilan bir soatga yaqin muloqot qildi. Unda yigirmaga yaqin yigit-qiz o'z taklif va tashabbusini bildirdi.

Muloqot mutlaqo erkin muhitda o'tdi. So'z so'raganlarning barchasi maqsad-muddaolarini izhor qildi. Har bir yoshning masalasi tegishli tashkilot rahbariyatiga yo'naltirildi. Agar yana qo'shimcha takliflar chiqadigan bo'lsa, ularni to'plash va Prezidentga yetkazish Yoshlar ishlari agentligi rahbari Alisher Shu'dullayev zimmasiga yuklandi. Shu tariqa tarixiy uchrashuv nihoyasiga yetdi.

Yaqin yillargacha butun dunyo nazarida "million egatlarga sochil-gan" xalqning bolalari sifatida ko'rilgan, bugun esa Yangi O'zbe-kistonning oltin avlodiga aylangan yoshlar ko'nglidan nima o'tdi ekan? Baxtli avlodning vakili sifatida xayolimga xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevaning ushbu satrlari keldi:

Siz quyoshsiz, balandlang-u botar yerni unutmang, Ildizdانسiz, tag'in ildiz otar yerni unutmang, Turkistonday qaytib kelib yotar yerni unutmang, Mendan qay ish lozim bo'lsa, Barchasiga tayyorman!

Otabek BAKIROV

TAQDIMOT

BOQIBEG‘AMGA BAXT BEGONA

Uyg‘onmoq mashaqqati, uyg‘otmoq mas’uliyati haqida spektakl

Yaqinda Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatrida taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonning “Uyg‘on, bolam!” asari asosida ustoz rejissyor Olimjon Salimov tomonidan sahnalashtirilgan spektakl premyerasi bo‘lib o‘tdi. Qarshi shahri shu kuni bamisoli mamlakatning teatr poytaxtiga aylandi. Premyerada viloyatda istiqomat qilayotgan ijodkorlar, professor va o‘qituvchilar, yoshlar, mehnat faxriylari bilan bir qatorda Toshkentdan borgan bir guruh ziyolilar ham qatnashdi.

Kamina ushbu taqdimotga andak xavotir bilan borganimni yashirmayman. Gap shundaki, spektaklning adabiy asosi bo‘lmish hikoyani avvalroq adibning “Ishonch telefoni” qissasida o‘qigan edim. Yaxshi badiiy asarning sahna yoki kino talqini esa har doim ham ko‘ngildagi-dek chiqavermaydi. Xayriyatki, bu galgi xavotirim asossiz ekan. Biri adabiyot-da, ikkinchisi sahna san’atida dovruc qozongan adib va rejissyor tandemi natijasida realistik uslubda yozilgan, rohatlanib o‘qishga mo‘ljallangan nasr namunasi asosida kiroyi tomosha asari yuzaga kelibdi.

Teatr san’atiga xos absurd, fojeylik, komediya, fars va grotesk elementlari qorishib ketgan “Uyg‘on, bolam!” spektaklida bugungi hayotimizning murakkab, ta’bir joiz bo‘lsa, paradoksal manzaralari ko‘rsatilgan.

Asosiy qahramonlardan tortib, epizodlarda birrov ko‘rinish berib o‘tgan personajlarga qadar – barchasi tomosha-bin yodida qoladi. Ko‘p zamondan buyon alomat korxonada biri ikki bo‘lmay ishlab kelayotgan, “ammamning buzog‘i” bo‘lmish Xudoyberdi, uning serialga mukkasidan ketgan noshud-no‘noq xotini Mahmuda, xo‘roz urishtirishga ishqiboz to‘ng‘ich o‘g‘li Shohrux, bekorchixo‘jalik bobida akasiga “dars o‘tadigan” “Sanjay” (ota-onasi mashhur hind aktyoriga cheksiz muhabbati bois uni shu nom bilan ataydi), “oyligi tufiligimni yirtib borganimga arzimaydi” deya durustgina ishlarni ham nazar-pisand qilmaydigan arzanda qiz Hilola... Da’vosi osmon bu zoti muboraklar qasr-u koshonada yashasa kerak-da, deb o‘ylasangiz adashasiz. Bu oila “Bir kun ko‘l, o‘n kun cho‘l” qabilida vayrona bir ijara kulbada umrguzaronlik qiladi.

Tayinli daromadi bo‘lmagan oilani kambag‘allik botqog‘idan qanday olib chiqish mumkin? Ana shu muammo yechimiga sho‘ng‘igan bosh qahramon Begmat Rajabovich xitoylik buyuk islohotchi Den Syaopin ko‘rsatmalariga tayanib, ne bir kor-amal, ne bir usul-uslublarni qo‘llamaydi deysiz! Qavm-qarindoshlar yordami bilan Xudoyberdining omonat uyini ta’mir-latadi, gaz, suv, chiroq pulini to‘lab berishdan ham qochmaydi, Shohruxni ichki ishlar sohasiga o‘qishga joylaydi, uy qurish uchun hokimlikdan yer undiradi, imorat solmoq uchun o‘z nomiga



kredit oladi. Qadrdonlarini kambag‘allik chohidan chiqarmoq uchun ularning qo‘liga “baliq” emas, “qarmoq” ham berib ko‘radi.

“Uyida chaksa uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tandir” deganlaridek, boqibeg‘am oila imorat uchun olingan o‘tning kallasidek kredit pulini yubiley tantanalariga, ko‘chat pulini esa xo‘roz jangiga sarflab yuboradi. “Bovasi” Begmat Rajabovich qo‘llovida militsiya kapitani bo‘lgan Shohrux-boy yengiltak ayolga ilakishib jinoyat ko‘chasiga kiradi. Boqibeg‘amga baxt ham begona!..

Alqissa, hojatbaror Begmat Rajabovichning kambag‘allikka qarshi kurashish yo‘lidagi barcha sa’y-harakatlari chip-pakka chiqadi. Hatto “Xitoy mo‘jizasi-niing me’mori” Den Syaopinning “Yer yuzidagi millionlab odamlarni qashshoqlik botqog‘idan xalos etgan oljanob dasturi” ham ish bermaydi dengi! Negaki, muallif kinoya ila qayd etganidek, mazkur dasturda “kambag‘alning ammasi to‘y qilsa, kredit pulini to‘yonaga bervorish”, “qir-q‘ellik yoshda restoranda bazmi jamshid o‘tkazish”, “bo‘g‘zigacha qargza botsa ham, yuz-yuz ellik kilolab osh tarqatish” hisobga olinmagan-da! Eng asosiysi, zuvalasi tanballikdan olingan, boqibeg‘amlik ila qorilgan er-xotin-u aka-singilda yakrang, nursiz hayotni tark etmoqqa jilla xohish yo‘q.

Hayot haqiqatlarini teran anglagan muallif go‘yo zamonga, zamondoshlariga ko‘zgu tutadi. Mard bo‘lib aytaylik, yon-atrofimizda, mahalla-ko‘y, xesh-aqrabolar orasida spektakl qahramonlari kabi boqibeg‘am, tanbal, osmondan chalpak yog‘ishini kutib o‘tirganlar yo‘qmi?

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish, aholini ishli qilish, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash borasida keng qamrovli choralar ko‘rilmoqda va ular ijobiy natijasini bermoqda. Afsuski, yurtdoshlarimiz orasida bunday ko‘mag-u yordamni suiiste-mol qilayotgan, to‘rt muchasi sog‘ bo‘la turib, boqimandalikni kasbga aylantirayotganlar ham uchrayotir. Nazarimizda, muallif goh

achchiq kinoya va istehzo, goh beg‘ubor hazil-huzul orqali jamiyat e’tiborini ana shu norasolikka qaratmoqni ham ko‘zlagan.

Spektaklda er-xotin rolini o‘ynagan aktyorlar Sherali Shoniyo-zov hamda Mohichehra Abdurahmonovanning ijrosini alohida ta’kidlash lozim. Aktyor bosh qahramon Xudoyberdining oriyat-u hamiyatni alla-qachon unutganini xatti-harakatlar, gap-so‘zlar orqali ta’sirli tarzda ko‘rsatib bergan. Kun-uzzukun qo‘ni-qo‘shni bilan keraksiz mavzularda valaqlashadigan Mahmuda obrazi ham ishonarli talqin etilgan. “Olmaning tagiga olma tushishi” ma’lum – loqayd, beg‘am ota-ona tarbiyasini olgan bolalar ham o‘z hayotiga o‘zi egalik qilolmaydi.

Tomosha asnosida ko‘hna bir rivoyat yodimga tushdi. Aytadilarki, shoh Anushervoni odil zamonda halol mehnat ortidan kun kechirmoq shara-fidan voz kechishga tayyor bo‘lgan tektinomoqlarga ham muruvvat ko‘rsatilibdi. Jarchilar ishga bo‘yni yer bermaydigan mardum poytaxtga kelib, shoh qasri ro‘parasida manzil tutishi mumkinligi, ularga tekin taom ulashilishi haqida ovoza tarqatibdi. Butun boshli mamlakatdan o‘n yetti tanbal yig‘ilib kelibdi. Oralaridan har kuni bir kishi tekin ovqatni olib kelishi uchun navbat belgilashibdi. Ammo shu ondanoq janjal, ur-to‘polon boshlanibdi – birortasi navbatchilikni boshlab berishni istamas-nish...

Qissadan hissa shuki, hamma zamonda ham boqibeg‘amlik, tektinomoqlikni kasb etgan toifa mavjud edi.

Qayd etmoq joizki, dunyoning qiyl-u qoliga mahliyo bugungi tomoshabinni “ibratxona”ga olib bormoq oson emas. Zamonaviy tomoshabin avvalgidek sodda emas. U barmoqlarini smartfon ekraniga qo‘ygancha, kurrayi arz pulsidan voqif bo‘lib o‘tiribdi. Ayni chog‘da, zamonaviy tomoshabin sabr atalmish ne’matdan bebahra. Uni hayratga solish, ikki soat mobaynida o‘rindiqqa mixlash uchun teatr ijodkorlari favqulodda tajribalarga qo‘l urmog‘i lozim bo‘ladi. “Uyg‘on, bolam!” ijodkorlari bu vazifani uddalaganiga san’at saroyida yig‘ilgan turli yosh, turfa xil kasb-kordagi zamondoshlarimizning tomosha

asnosidagi hayrat-u hasrat qorishib ketgan nigohlari shohidlik beradi.

Ulug‘ ma’rifatparvar shoir Cho‘lpon “Millatni uyg‘otish – uyg‘onganlarning vazifasi”, degan edi. Spektakl davomida ham uyg‘onish so‘zi bot-bot yangraydi. Nazarimizda, muallif boqibeg‘am bir oilaning fojiasini ko‘rsatish orqali g‘aflat uyqusida yotgan yurtdoshlarimizni uyg‘otmoqni ko‘zlaydi. Bamisoli “Bugun mudrash, uyqusirash, pinakka ketish emas, balki bedorlik zamoni, yurt ravnaqi yo‘lida belni mahkam bog‘lamoq zamoni, yaratmoq, yashnatmoq zamoni!” deya bong uradi. Asar bosh qahramoni tilidan yangraydigan “To bir qavm o‘zlarini o‘zgartirmagunlaricha, Alloh ularning holini o‘zgartirmas” (“Ra’d” surasi, 11-oyat) degan ilohiy eslatma ham spektakldan ko‘zlangan maqsad-muddao naqadar cho‘ng, naqadar ulkan ekanini tasdiqlaydi.

Teatr san’atimizning atqoli namoyandasi rahmatli Bahodir Yo‘ldosh sahna san’atining asosiy vazifalaridan biri insonning “uchinchi” ko‘zi – basirat nigohini ochish ekanini ta’kidlagan edi. Mazkur sahna asari muallifi ham qahramonlarining basirat ko‘zi ochilishini orzu qiladi. Demak, bu o‘rinda gap shunchaki uyqudan turish haqida emas, balki chinakam ma’naviy uyg‘oqlik haqida ketmoqda.

Bosh qahramon Begmat Rajabovichning spektakl mobaynida tepsa-tebranas qarindoshlarini goh foydali kasb-kor egallash, goh puxta bilim olishga chorlashi bejiz emas. Zero, boqibeg‘amlik, tektinomoqlik kabi illatlarga aynan foydali mehnat va durust ta’lim-tarbiya vositasida chek qo‘yish mumkin.

Ma’naviy qashshoqlikni bartaraf etmaguncha moddiy farovonlikka erishib bo‘lmaydi. Obodlik ko‘ngil obodligidan boshlanadi. Spektaklda ana shu hayotiy haqiqatlar ham badiiy yo‘sinda namoyish etilgan.

Muallif umidsizlikka tushmaydi, balki nekinlikni ma’qul ko‘radi. “Kambag‘allikka qarshi kurashish” dasturiga mos ravishda tayyorlangan sahna dekoratsiyasini yodga olsak. Bir-biridan farq qilmaydigan egizak derazalar qorong‘ilikda go‘yo mudramoqda. Ne baxtki, o‘nlab derazadan uch-to‘rttasida chiroq yonib turibdi. Bu – umid nuri, ishonch yog‘dusi. Demak, hamma ham toshdek qotib uxlamayapti. Bedorlar bor, uyg‘oqlar bor! Ular esa, shubhasiz, mudroqlarni uyg‘otgusi!

“Hammasi tugadi, tugadi axir, Parda tushirildi, tomosha tamom. Biroq sahna uzra hal bo‘lgan taqdir Mening yuragimda qilmoqda davom”, – deb yozgan edi shoir Rauf Parfi. “Uyg‘on, bolam!” asari ham ko‘pchilikka ana shunday ta’sir ko‘rsatdi. Spektakl xotimasida an’anaga ko‘ra ijodkorlar sahnaga chiqishdi. Mutaassir tomoshabin ijodkorlarni samimiy olqishlarga ko‘mdi. Spektakl voqealari teatr sahnasidan endi ko‘ngil sahnalariga ko‘chdi...

Olimjon DAVLATOV, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

rahbari, san’at arbobi Olimjon Salimov. Asarni rejissyor Samiddin Lutfullayev sahnaga qo‘ygan. Rassom Sergey Chufarnov bezaklari asar voqeligiga mos ishlangani e’tirofqa loyiq.

Asar qahramonlarining bir maromda, kundalik quvonch-u tashvishlar, kela-jak orzulari bilan osuda kechayotgan hayoti beshafqat urush tufayli o‘zanidan chiqib ketadi. Asosiy obrazlarni ijro etgan S.Xurramov (Ikromjon), T.Mirmasqadova (Jannat), A.Nodirboyev (Tursunboy), E.Rahimov (Tog‘a), B.Ibrohimova (Zebi) va boshqa aktyorlar sahnada nafaqat o‘z qahramonlarining hayoti, o‘y-tashvishlari bilan yashadi, balki ularning insoniy qiyofasini, iztiroblarini, yaxshi-yu yomon xislatlarini ochib berishda katta mahorat ko‘rsatdilar.

Ayniqsa, Ikromjon va Jannatning iztiroblari hech bir tomoshabinni befarq qoldirmadi. Faqat bosh qahramonlarga emas, balki sahnaga chiqqan har bir aktyor shu kuni rol o‘ynamadi, tom ma’noda sahnada yashadi.

Teatrdan chiqar ekanman, yaxshi yozilgan asar asosida mahorat bilan sahnaga qo‘yilgan spektakl, qaysi davrda yozilganidan qat’i nazar, aktyorlarning beqiyos ijrosi, jamoaning yakdilligi tufayli tomoshabin e’tirofini qozonishiga takror amin bo‘ldim.

G. FAYZIYEVA

QARDOSHLIK



“BOBOLAR IZIDAN...”

O‘zbekistonlik olimlar va ijodkorlar Ozarbayjonda

O‘zbekistonlik taniqli olimlar, yozuvchilar, san’atkor va jurnalistlardan iborat “Bobolar izidan...” nomli ilmiy-ijodiy ekspeditsiya Ozarbayjon poytaxti Boku shahriga yetib bordi. Ushbu tashrif ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy ildizlar, madaniy rishtalar va ma’naviy yaqinlikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan.

Ekspeditsiya ishtirokchilari qadimiy madaniy obidalar, tarixiy maskanlar va ilmiy markazlar bilan tanishib, Ozarbayjon zaminida asrlar davomida yashab ijod qilgan adiblar ijodini o‘rganishga bel bog‘lagan. Sayohat doirasida ilmiy uchrashuvlar, adabiy-madaniy tadbirlar, ijodiy suhbatlar ham rejalashtirilgan.

“Bobolar izidan...” ekspeditsiyasi ikki xalq o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni mustahkamlash, umumiy tarixiy merosni chuqur o‘rganish va uni yangi avlodga yetkazishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Mazkur tashabbus O‘zbekiston va Ozarbayjonning ilmiy hamda madaniy aloqalari rivojiga yangi turtki bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbek va qardosh ozarbayjon xalqi orasidagi do‘stlik ko‘p asrlik tarixga ega. Ayniqsa, o‘tgan asrning boshlarida jadid taraqqiyparvar bobolarimiz bu do‘stlikni yanada yuqori darajaga olib chiqqan edilar. Bu nafaqat madaniyat va san’at, matbuot, maorif, hatto siyosiy sohadagi ko‘p qirrali hamkorlikni ham o‘z ichiga oladi. Dastlab, Turkistonga ozarbayjon gazetalarini keldi, teatr truppalari tashrifi aloqalarga qanot bog‘ladi. 1905–1917-yillar davomida faoliyat ko‘rsatgan jadid maktablarida o‘quvchilar dastlab ozarbayjon, tatar, turk tillarida chop etilgan darslik va adabiyotlar asosida o‘qitilar edi.

Ma’lumki, Turkiston jadidlari 1917-yilning mart oyida “Sho‘royi islom” jamiyatini tuzdilar. Ular o‘zlarining partiyachilik tajribalarini yuksaltirish maqsadida Turkistonga Ozarbayjondan Muhammad Amin Afandizoda, Piri Mursalzodani chaqirishadi. 1917-yilning yozida ilk siyosiy partiya – “Turk adam markaziyat” dunyoga keladi. Nizomiddin Xo‘jayev mazkur partiya-da rais o‘rinbosari vazifasiga loyiq ko‘riladi.

1917-yil avgust oyida Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan Toshkent shahrida sakkiz oylik muallimlar kursi ochilgan edi. Murodxo‘ja domla Solihxo‘jayev mudir bo‘lgan bu ta’lim dargohi o‘lkada oliy ta’lim sari qo‘yilgan ilk qadam bo‘lgan. Unda tabiatshunoslik fanidan Amerikada oliy ma’lumot olgan Burhon Habib, tarixchi Zaki Validiy To‘g‘on, jahon tarixidan ozarbayjonlik Muhammad Amin Afandizoda kabi o‘z davrining yetuk olim va mudarrisilari dars berish uchun jalb etiladi. Afsuski, keyingi davrlarda sovet tuzumi tazyiqi ostida bu do‘stlik aloqalari uzilib qoldi.

Endilikda mazkur aloqalar tarixini keng tadqiq etish tarixchilarimizning vazifasi bo‘lsa, millatlarimiz orasida iqtisodiy-siyosiy, madaniy, ma’rifiy aloqalarni tiklash va ravnaq toptirish barchamizning burchimizdir.

Ana shu vazifalardan kelib chiqib, “Bobolar izidan...” tashabbus guruhimiz navbatdagi safar uchun Ozarbayjonni tanladi. Olimlar, yosh va taniqli shoir-yozuvchi, rassom, san’at vakillaridan iborat guruh shakllantirildi.

Yo‘ldoshlarimiz ko‘ngliga faxr-u iftixor ulashgan yana bir muhim jihat – bu ayni safar Yurtboshimizning Ozarbayjonga rasmiy tashrifi fonida kechayotganidir. Mezbon davlatning qator shaharlari yurtimiz bayrog‘i bilan bezatilgan ko‘nglimizni tog‘ qadar yuksaltirdi, qaddimizni yanada tik etdi.

Rasmiy tashrif chog‘ida mustahkamlangan ko‘p tomonlama hamkorlik qardosh xalqlarimizning azaliy do‘stlik rishtalarini yanada jipslashtirishga xizmat qilajak.

Shahriyor SHAVKAT
Boku shahri

MADANIY HAYOT

Ma’lumki, millatni uyg‘otmoq, ma’rifat yo‘liga solmoqning ta’sirchan vositalaridan biri va eng muhimi bu teatr deb hisoblagan jadid bobolar. Ayniqsa, millat oydinlarining peshqadami bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr bu – ibratxonadir” degan quyma iborasi “tomoshog‘a o‘ch va haris o‘lg‘on ulusning” tabiatini bor bo‘yicha qamrab olgani bilan alohida ma’no-mohiyat kasb etadi. Ikki kun ketma-ket premyerada qatnashar ekanman, “teatr urfdan qoldi”, degan gaplar urfdan qolganiga guvoh bo‘ldim. Chunki tomosha qilganimiz har ikki spektakl ham tomoshabin bilan to‘la bo‘ldi. Muhimi, tomosha vaqtida biror muxlis zalni tark etgani yo‘q.

Dastlab, Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatrida yangicha uslubda sahnalashtirilgan “Odam va olam orasi yoxud she’riyatning mangu sadosi” nomli she’riy-musiqiy spektaklni tomosha qildik.

Tomosha davomida sahnada Turg‘un Beknazarov, Ma’suda Otajonova, Rasulxon Qodirxonov, Inobat Umirova kabi taniqli aktyorlar bilan bir safda o‘n nafar yosh shoir ham chiqish qildi.

CHIROYLI VA KIROYI PREMYERALAR

Taniqli dramaturg Qo‘chqor Norqobil asari asosida teatr bosh rejissyori Doston Haqberdiyev (asar g‘oyasi muallifi Botirjon Ergashev, badiiy rahbar Sanobar Qulmirzayeva) sahnalashtirgan ushbu “She’riyat teatri” seanslarini davom ettirish hamda respublikamiz bo‘ylab namoyish etish kerak, nazarimda.



O‘zbekiston davlat drama teatri ham aytib o‘tganimizdek, san’atsevarlar bilan gavjum. Ikkinchi jahon urushi tugaganiga 80 yil to‘lishi munosabati bilan “Ufq” asari qayta sahnalashtirilibdi. O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmadning o’sha mashhur asari asosidagi inssenirovka muallifi va badiiy



SUHBAT

MUNOSABAT

AFANDINING
QARINDOSHLARI

“Jadid” gazetasi 25-sonida taniqli olim Sultonmurod Olimning “Asl Afandi” nomli maqolasini o‘qib, zavqlandim. “Afandimijoz bu odam”, “E, Afandiga o‘xshamay ket”, kabi gaplarni o‘zimiz ham tez-tez takrorlaymiz. Hatto, o‘qituvchi va adib Abdivoy Rahim qishlog‘imizda yashagan o‘ndan ortiq afandife‘l odamlarning tesha tegmagan, qiziq gap-so‘zlarini yig‘ib “Nasriddin Afandining nabiralari” nom bilan chop ettirganda, kitobi bo‘lma-qo‘l bo‘lib ketgandi.

Mutolaa davomida muallif Xoja Nasriddinga Buxoro va Turkiyaning Oqshaharida haykal qo‘yilganini yozadi. Bu ro‘yxatga Afandining Moskvadagi “Molodoyojnaya” metrosi chiqish qismiga o‘rnatilgan haykalini ham qo‘shish mumkin. 2006-yilda haykaltarosh Andrey Orlov tomonidan bronzadan yasalgan yodgorlik afsonaviy qahramonning topqirligi va hozirjavoblighi rus do‘stlarimizni ham befarq qoldirmaganidan darak beradi.

Yana bir gap: ko‘plab xalqlarning Nasriddin Afandiga o‘xshash qahramonlari bor. Masalan, ispanlarda Don Kixot, nemislarda baron Myunxauzen, ruslarda Ivan, qozoqlarda Aldar Ko‘sa, qoraqalpoqlarimizda Umurbek Laqqi va hokazo. Ustoz shoirimiz Erkin Vohidovning Matmusasi ham Afandidan kam emas aslida.

Bularning barchasi millati, dini va tilidan qat‘iy nazar bir oila vakillari – qarindoshdir. Shu ma‘noda Afandining millati yo‘q, turli ko‘rinish va ismlarda bo‘y ko‘rsatsa ham, u Yer yuzida yashovchi barcha kulgusevar, oqko‘ngil, hozirjavob, saxovatli odamlarniki.

O‘rolboy QOBIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

ADABIY TIL MAKTABI

QAYERDA?

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, taniqli yozuvchi
Nazar ESHONQUL bilan suhbat

– Haqiqiy ijodkor faqat o‘z davri va davrasi uchun yozmaydi. Asarlari asrlar davomida yashashini, millionlab qalblarni zabt etishini istamagan yozuvchi bo‘lmasa kerak. Nazar aka, bu istakning ijobati siri nimada?

– To‘g‘ri aytdingiz, har bir yozuvchi umid bilan yozadi. Yozish asnosida shu ko‘hna olam, o‘zaro munosabatlar, “qayerdan keldik, qayerga ketamiz, vazifamiz nima?” degan bashariy savollarga o‘z zamonida turib javob izlaydi.

Masalan, adabiyotni insonshunoslik deydi bo‘lsak, yozayotgan kitobimiz inson haqida qandaydir xulosa berishi kerak. O‘quvchi mutolaa so‘ngida nimanidir anglab yetsa, mana shunda asarning umri uzayadi.

Odatda, odamlar ko‘nglidagi savollarga javob bera oladigan asarlarni tez va oson qabul qiladi. Yozganimiz kimnidir ta‘sirantirsa, hayajonga solsa yoki o‘ylantirsa, ana o‘shanda vazifamizni bajaribmiz. Agar fikrlarimiz Vaqt elagidan o‘lmasa shunga rozi bo‘lamiz-da.

– Vazifani munosib bajarayotgan ekansizki, 2024-yilda AQShning “Mundus Artium Press” nashriyoti tomonidan “Yil yozuvchisi” deb e‘tirof etildingiz. Ana shu muvaffaqiyat tarixi haqida so‘zlab bersangiz.

– Texas universitetida “Jahon adabiyoti” jurnali chiqadi. Tahririyatning o‘z nashriyoti bor. Ular dunyodagi yozuvchilar ijodini kuzatib boradi. Hatto, birorta asari ingliz tiliga tarjima qilinmagan adiblarni ham o‘qishadi. Imkoniyati bo‘lsa kerak-da.

O‘sha tashkilot vakili ijtimoiy tarmoq orqali meni topib, bog‘landi va mukofotga nomzodim qo‘yilishini aytdi. Hikoyalarni g‘ugl tarjima yordamida inglizchada yubordim. Bilasizmi qanday javob keldi? “Siz asl variantini jo‘natavering, o‘zimiz tarjima qilib olamiz”, deyishdi. Hakamlar hay‘ati mukofotlash sababini “umuminsoniy madaniy autentligi hamda universal kodlarni milliy voqelikda aks ettirgani uchun” deb ko‘rsatishdi.

E‘tirofdan ko‘ra kitobimni inglizchaga o‘g‘irib, elektron shaklda onlayn kutubxonalarga joylashtirilishi men uchun quvonchli bo‘ldi. Bu orqali inglizxon kutubxonlar zamonaviy o‘zbek adabiyoti namunalari bilan tanishadi, tasavvuri kengayadi. Ajabmas, ular orasidan milliy adabiyotimizga qiziquvchi tarjimonlar chiqsa.

Ijodkorning yaqin va uzoq davlatlardagi katta-kichik muvaffaqiyati har birimizni xursand etishi kerak. Chunki uning ismi bilan birga jahonda O‘zbekiston nomi ham yangraydi. Buyam bir targ‘ibot. Bugungi imkoniyatlar zamonida “ikki daryo oralig‘ida qolib ketdi mening o‘shal ovozim”, deb o‘tirish vaqti emas.

– Kitobingiz ummonortida elektron shaklda tarqatilishini ta’kidladingiz. Bu jarayon bizda ham odat tusiga kirdi. “ZiyouNET” tarmog‘i, “Ziyouz.uz” portali, “Mutolaa” ilovasi va boshqalar buning yorqin misoli. Badiiy adabiyotlar yuz minglab nusxada chop etilgan davrni ko‘rgan avlod vakili sifatida axborot-kommunikatsion texnologiyalari kitobxonlik darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz?

– Meni qarashimcha, salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Biz zamon shiddati va globallashuv ta’sirini his qilishimiz kerak.



Kitob yozuvdan ham qadimiyroq tushuncha. Muqaddas kitoblar, xalq dostonlari va boshqalar qog‘ozga tushirilmagan oldin ham mavjud edi. Ularni ham kitob der edik. Keyin og‘zaki nutq yozma nutqqa evrildi. Yozuvlar tosh, sopol va suyaklardan teri, ipak, qog‘ozga o‘tgandan beri odamlar bosma manbalarga o‘rganib qoldi. Endi ularning o‘rnini elektron kitoblar egallayapti. Demak, kitob hech qachon yo‘q bo‘lib ketmaydi. Shunchaki vaqt o‘tib shaklini o‘zgartiradi. Tarix takrorlanish xususiyatiga ega. Davrlar o‘tib odamizod yana og‘zaki nutq bilan kifoyalanishi mumkin.

Bizni kitob shaklining o‘zgarishi emas, elektron kutubxona bazasining qanday adabiyotlar bilan to‘ldirilayotgani o‘ylantirishi kerak.

Avvallari kitobni qo‘ltiqlab yurardik. Bugun esa hammaning qo‘lida telefon. Bu degani zamondoshlarimiz mutolaadan uzoqlashdi degani emas. Yoshligimda kutubxonama-kutubxona yurib, kitob izlardim. Hozir esa izlagan kitobimning 95 foizini internetdan topaman.

Bunday mutolaa bizning yoshdagilar uchun biroz qiyin: ko‘z charchaydi. Lekin yangi avlod shunga ko‘nikib ulg‘aymoqda.

Taraqqiyot shu bilan to‘xtaydimi? Yo‘q! Kino san‘ati adabiyotning o‘rnini sekin-asta egallab boryapti. Intellektual kinolar, modern kinolar paydo bo‘ldi. Qarab tursangiz, adabiyot vizual ko‘rinishga ko‘chib o‘tayotgandek tuyuladi. Biz buni qanchalik devor qo‘yib to‘siq olmaylik, baribir vaqti kelib shunga o‘tamiz.

Shu darajada keng imkoniyatga egamiz. Faqat dangasa bo‘lib qolyapmiz.

Muammo boshqa narsada: shakli qanday bo‘lishidan qat‘i nazar adabiyot o‘qilyaptimi? Kimlar o‘qiyapti? Kim qanday bahra olyapti? Qanday xulosa qilyapti? Masala shunda. Kitob haqida ham, yozuvchi haqida ham informatsiya bilan cheklanyapmiz. Uning ichidagi estetikasi, ichidagi so‘zning og‘riqlarini, poetikasini his qilish yo‘q. Bu narsalarni his qilmasa, odamni ko‘ngli tarbiyalanmaydi. Miyamiz faqat informatsiya yig‘uvchi “xard” bo‘lib qoladi, xolos. ITning, temirning bir bo‘lagiga aylanib qolishi mumkin.

– Sizdan “O‘zbektelefilm” davlat muassasi direktori o‘rinbosari va bosh muharriri sifatida ko‘plab mushtariylarimizni qiyinayotgan savollarga javob olish niyatidamiz. Bugun nega milliy mentalitetimizga, hatto, eng oddiy kasb etikasiga zid bo‘lgan ko‘rsatuvlar va seriallar televideniya yetakchilik qilmoqda? Boshlovchilarning bemalol o‘z shevasida gapirishiga ko‘nikib qolgandaymiz. Bu holda televideniyaning yaqin va uzoq kelajagini qanday ko‘rsasiz?

– Davlat telekanallarida urf-odatlarimizga, nutq madaniyatiga va millatimizga xos ichki jarayonlarning barchasi joy-joyida ketyapti. Kinolar ham, ko‘rsatuvlar ham. Lekin xususiy telekanallarda o‘zbek hayotini aks ettiradigan ko‘rsatuvlar kamroq. Buning asosiy sababi – tijorat mo‘ljalining ruhiy qadriyatlardan ustun qo‘yilishi.

Seriallar masalasi esa ko‘p chaynalgan, chaynalmoqda. Bunga har bir kishining haqi bor. Chunki ommaga havola etiladigan tomosha bilan ko‘rpa ostiga kirib olib tomosha qiladigan tomoshaning farqi bor.

Televideniya mas’ullar, eng avvalo nimani ko‘rsatish yoki ko‘rsatmaslik kerak degan aniq mezonga ega bo‘lish kerak. Bugun “reyting” degan ko‘satkich go‘yo TVning asosiy mezoni sanalyapti. Shaxsan men uchun bu xato. Seriallardagi voqelikdan tortib, oddiy kiyinishgacha bu psixologik jarayon: uni tomosha qilayotganning ong ostiga bevosita bo‘lmasa-da, bilvosita ta’sir qiladi.

Sizga bir misol aytay. Amerikalik tamakifurushlar tamaki bozori o‘zlar kutgan natijani beravermagach, buyuk psixolog Freyddan katta pul evaziga maslahat olishgan. Pulga muhtoj psixolog juda oddiy maslahatni bergan. Ya’ni, kinolardagi odamlar yaxshi ko‘rib qoladigan yoki bugungi til bilan aytganda “krutoy” qahramonlarga tamakigizni chektiring, deydi. Shundan so‘ng Amerika kinolarida bosh va asosiy qahramonlar tamaki chekib rol o‘ynashadi. Bu o‘z natijasini beradi. Ikki-uch yilda tamakifurushlik eng foydali biznesga aylanadi.

Siz aytayotgan seriallar qaysidir ma’noda “tamaki targ‘ibi” vazifasini o‘tayapti. Seriallar, ommaviy tomoshalar uzoq muddatli vaqtga sozlangan bombaga o‘xshaydi, u birdan portlamaydi. Seriallarning ta’siri yillar o‘tgach o‘z natijasini beradi. Unda balki juda kech bo‘lishi mumkin.

“Reyting” bu bozor mezon. Ammo u ma’naviy mezonlar ustiga qurilishi kerak.

Televideniya bugungi biz ko‘nikkan ko‘rinishda qolmaydi. Taraqqiyot halitidan uning o‘rniga variantlar taklif qila boshladi. Xuddi kitob kabi TV ham o‘z shaklini va ifoda usulini o‘zgartirishga majbur. Bugun bo‘lmasa ertaga majbur bo‘ladi.

Unutmashlik kerakki, televideniya – adabiy til maktabi. Bu yerda so‘z, talaffuz, ifoda tarzi qat’iy qoidalarga asoslangan bo‘lishi shart. Boshlovchi shevaaxon bo‘lsa, yosh avlod uni shunday qabul qiladi.

Televideniyaning kelajagiga keladigan bo‘lsak, umidlarimiz katta. Islohotlar natijasi yaqin kelajakda bo‘y ko‘rsatadi. Biz kelajakda “odamni raqam emas, ruh deb biladigan” televizion muhitni tiklashimiz shart. Bu, albatta, bizning mas’uliyatimiz.

– Samimiy va kuyunchak suhbatingiz uchun, Sizga gazetamiz o‘quvchilari nomidan minnatdorlik bildirib qolamiz.

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.

Burgutning makoni tovlar orasi...

Boshlanishi 1-sahifada.

TEATR

O‘spirin bolangning ushlab qo‘lidan,
Qaytarib noma‘lum manzil yo‘lidan,
Aktyor uchun olib gulning zo‘ridan,
Kel, do‘stim, xizmatga tayyor teatr.

Hayotning lazzatin, ba‘zan g‘avg‘osin,
Kimga achchiq, kimga shirin sovg‘asin,
“Seniki-meniki” – umr savdosin
Laganday oldingga qo‘yar teatr.

Bu joyda o‘rin shay keksa, yoshgacha,
Ko‘ngilga o‘rnashar zavqi boshqacha,
Yuraklar aylanib ketmay toshgacha,
Bayram chechaklarin yoyar teatr.

Tagi yo‘q to‘rvani bir chetga qo‘yib,
Qorin tashvishini ko‘ngildan quvib,
Ruhni poklantirib, nafas ol to‘yib,
Ko‘ngil muhandisi, dildor teatr.

Ro‘yo dunyosidan uzgil ko‘zingni,
So‘ylagil bolangga tansiq so‘zingni.
“O‘rgimchak to‘ri”dan qutqar o‘zingni,
Jadidlardan meros, hamkor teatr.

OLTILIK

Anov sochi oppoq to‘rdagi kishi,
Aqli to‘lishgan-u, kamaygan tishi,
Xayolini bo‘lar murti nish urgan
O‘smir nevarasin sirli kulishi.
Quyosh aylantirar zamon charxini,
Nevara o‘ylamas non-choy narxini.

TESHIK TO‘RVA

Barakasi yo‘qning teshik to‘rvasi,
Hech qachon to‘lmaydi, doim biri kam.
Bugun savdogarning qizg‘in savdosi,
Lekin ko‘ngli to‘lmas, aytar “miri kam”.

Bir inson boylik deb hisoblab suvni
Tuyada keltirib, quduqqa to‘kmish.

Hisobli dunyo bu tosh-tarozuli,
Quduqqa qo‘shilib, qo‘rg‘oni cho‘kmish.

Xudoga shukur, deb duolar qilgan,
Tangriga topingan ko‘z-qabog‘i nam,
Nolish nimaligin aslo bilmagan,
Qanoatda baxtin topgandi onam.

Shukrona bo‘lmasa, oltin tog‘i bekor,
Qanoatli chehra taratadi nur:
Ajdodlardan meros tengsiz tole bu –
Menga ham shukrona berilgan, shukur.

ANGLA, DO‘STIM

Bu dunyo mehmonlar makoni emas,
Mehr-muhabbatga qo‘rg‘on u asli.
Johil, buzuqlarning karvoni emas,
Oqibat, sabotga karvon u asli.

Qancha gerdaysang-da osmon uzoqda,
Yeti qat sirlaring yashira berar.
Shumlikni o‘ylasang xilvat chorbog‘da,
Dunyo o‘z shumligin oshira berar.

Bugun zahar bo‘ldi kechagi sharbat,
Hashakka aylandi ko‘klam chechagi.
Bugun o‘tin bo‘ldi bulturgi ko‘chat,
Oqshom kulga do‘ndi ildiz kechagi.

Taltayib tashlangan qadam omonat,
Yo‘llar izingni jim yutaveradi.
Iloho, manzilda kutsin saodat,
Baxtsizlar g‘aflatda o‘taveradi.

Kimman? Nechun keldim bu dunyoga, deb,
Har kuni o‘zingni tutgil so‘roqqa.
Yaxshilik qilib qol, savob qilib qol,
Inson degan nomni burkagin oqqa.

Burgutning makoni tovlar orasi,
Sotqinlar makoni zovlar orasi.
Burgutlar ko‘paysa, tovdoy o‘rsarsan,
Sotqinlar ko‘paysa, quvrab to‘zarsan.



RAVOJ O‘TAR (Rao‘aj Otarbayev) – 1980-yil 14-fevralda Chimboy tumani “Kenges” ovul fuqarolar yig‘inida tug‘ilgan. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Oliy adabiyot kursida tahsil olgan. Qoraqalpoq davlat universitetini jurnalistika bo‘limini tugatgan. “Jayhun jilvalari”, “Vatan mehri” she’riy to‘plamlari muallifi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi.



MA'RIFAT LIBOSIDAGI OZODLIK

Boshlanishi 1-sahifada.

Shuning uchun, ta'lim muassasasiga mudarrislar tayinlashda mahalliy xalq orasidan bilimli, vatanparvarlarga emas, balki poraxo'r, kaltabin, chalamullalarga va mustamlakachining har qanday topshirig'ini ortig'i bilan bajaradigan nusxalarga e'tibor qaratilgan. Ular tarixga "qadimchi" nomi bilan kirgan va jadid maktablariga qarshi hujumlar aynan ana shu "tayinlangan"lar tomonidan amalga oshirilgan. Qolaversa, eski maktablarda bolaning umrini bekor o'tkazadigan tartiblar, o'qitiladigan darslar mazmuniga ham mustamlakachilar ana shu manqurt gumashtalari vositasida aralashgan.

Masalan, geografiya, tarix, aniq fanlar ta'lim dasturiga kiritilmasdan, bolalar yoshiga mos bo'lmagan adabiyotlar o'qitilgan. Bitiruvchilardan xalqning koriga yaraydigan yaratuvchi mutaxassis emas, bu dunyoning o'tkinchiligi barvaqt tan olib, fikrlamasdan, o'z ustida ishlamay, eplasa maishatga beriladigan qul yetish-tirilgan. Aslida, Behbudiy millatni yo'q qilishga, mangu qullikda saqlashga mo'ljallangan katta fitnaga qarshi ushbu bandni kiritgan edi.

Yoki "Rus harfi musulmon millatig'a jabriy bo'lmasin" degan talabni tahlil qilib ko'raylik. Bu harf oqibatida qancha millatlar o'z yeridan, tarixidan mosuvo bo'lgani misolida Behbudiy talabining naqadar to'g'ri ekanligini bugun ziyoli kishilar yaxshi anglaydilar, albatta.

Umuman, hujjatdagi har bir bandni chuqur tahlil qilish mumkin, ular sirtidan madaniy ko'rinsa-da, asosan siyosiy talablardir va shu bois u chor hukumatining g'aladonida qolib ketgan, jamoatchilikdan yashirilgan. Murojaati e'tiborsiz qoldirilganini anglagan Behbudiy uning mazmunini keyinroq gazetada maqola tarzida chop etadi.

O'tgan asrning 90-yillarida Alisher Navoiy nomidagi kutubxonaning Nodir qo'lyozmalar bo'limida saqlanadigan "Samarqand" gazetasida "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" (1913-yil, 30-iyul soni) maqolasini ilk marotaba o'qib, vujudim titrab ketgandi. *"Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobe'dur? Buning oxiri xarobdur", deb yozadi Behbudiy. Buni arabiy alifbodan o'girib, yana qayta-qayta o'qiganman.*

1917-yil taloto'plarida "Samarqand xalqi ikkig'a bo'lindi. Bilkulli ikkiga emas, yuzg'a bo'lunib, xalqning ko'ngli sovub, ba'zilarning so'z va harakati-dan nafratlanib, tarqalib ketdilar", deya hurriyatni asrab qolish uchun Behbudiy zor qaqshab murojaat qiladi. Uni o'qib, avvalgisidan-da, iztirobga tushganman: "Aziz hamshaharlarim, mo'tabar ahli vatanim, hammangiz bir bo'lub, xalq va dinning rivoji uchun birlashub, oradaki nafratlarni tashlab, xudoning bergan hurriyat ne'matidan nafilanmoq harakatida bo'lmoq kerak va alan bizning bu harakatsizligimiz bizdan hurriyatni ketkurib yana boshqalarg'a bizni asirlik darajasiga tushurur va yuz yillar ila keyin ketarmiz va bizning avlodimiz hamda xalqi olam bizga rahmat o'rninga la'nat o'qurlar" ("Ulug' Turkiston", 1917-yil 12-iyun). Darhaqiqat, ittifoqsizlik sabab taraqqiyotdan yuz yillar ortda qolganimiz rost.


Hozirchi, demoqchimisiz? Bugun Behbudiy davridan farqli o'laroq, uning orzusidagi ozodlikka erishganmiz. Yoshlarimiz jadid bobolarimiz yetti uxlab tushida ko'rmagan zamonaviy maktab, kollej, litsey va oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqdalar. Millat rivojiga xizmat qilishga qaratilgan ta'lim muassasalarimiz soni jadidlar orzu qilganidan ham ziyoda. Qonun bor, Yurt rahbarining tegishli farmon va qarorlari yo'lni ochib qo'ygan. Eng muhimi, ularning zamon bilan hamnafas bo'lishini ta'minlaydigan, qonunchilikda ham, ijroda ham va hatto sud hokimiyatida ham millatni yuzlab pog'ona yuksaltiradigan masala mohiyatini anglovchi vatanparvar, tajribali va zukko mutaxassislar kerak. Bu juda qiyin, murakkab jarayon. Hammasini faqat Davlat rahbari zimmasiga yuklab yuraversak, barchamiz o'z hissamizni birdek qo'shmasak, birlashib uddalamasak, orzular hayotga tatbiq etilmay, orzulichga qolib ketishi mumkin.

Behbudiy bobomiz 1908-yilda "Ta'rix va jug'rofiya" nomli felyeton yozadi – millatimiz ravnaqiga to'g'anoq bo'lgan va bo'layotgan "e'tirozlar paradi" va hujumlarga qarshi. Atay murakkab tilda bitilgani bois felyeton bosh muharrir Nikolay Ostroumov senzurasidan omon o'tib, Turkiston general-gubernatorligining nashri "Turkiston viloyatining gazetida bosilib chiqadi. Hamma mojaro shundan boshlanadi. Behbudiy ta'qib-u tazyiqlar ostida qolib ketadi.

Behbudiy ijodini o'rgangan aksar tadqiqotchilar "Ta'rix va jug'rofiya" felyetonining Markaziy arxivda saqlanib kelayotgan "Oxranka" (chor Rossiyasi maxsus xizmati) tomonidan rus tiliga o'girilgan tarjimasini ko'rishgan va u haqda shu paytgacha sukut saqlashgan. Hatto mazkur publitsistik asar yaqinda ikki jildga to'plangan kitobga ham kiritilmadi. Ba'zilar kitobda shu nomda maqola bor-ku, deyishi mumkin. Bor, lekin u Behbudiyini sarson qilgan, qora ro'yxatga tushirgan o'sha maqolasi emas. Biz uni tabdil qilib, yaqinda "Oyina.uz" nashrida e'lon qildik.

Felyetonning bosh muharrir senzurasidan omon o'tganligiga kelsak, unda asosan Yevropa davlatlarining Osiyo xalqlariga bosqinini Behbudiy katta planda ko'rsatgani bilan bog'liq. Chor Rossiyasining azaliy raqiblari Yevropa davlatlari mustamlakachilik qilmishlari tahlili va tanqid muharrirga yoqqan. Dunyoning yangi qiyofasi fonida Turkistonning ham Rossiya tomonidan bosib olingani to'g'risidagi ma'lumot ikkinchi planda sezilmay qolgan. Behbudiy maqolasiga asosiy e'tiroz ana shu – u bosqinchiga oyina tutgan.

Behbudiyini idoralariga chorlab "siyosatga nega aralashasan" deya savolga tutishmaganda, keyingi "Tavzeh" (izoh) sarlavhali maqolasida quyidagilarni yozmagan bo'lardi: **"Rusiyan kim va qandayligini bilmaydurg'on nodonlardan emasmi va ammo "Ta'rix va jug'rofiya" unvonlik maqolamiz ta'rix va jug'rofiya o'qumoqni diniy jilva etdirmoq va yoinki sarf ilmiy va voqeiy**



“Har firqani o'z din va millatig'a qilaturg'on xizmat va millatparastlik o'shal firqani gazetini ila ma'lum o'lur, har toifani jaridalari o'shal toifani miqvos va mezonidir.

Mahmudxo'ja BEHBUDIY



Halim SAIDOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

bir maqola edi. Siyosiy va taassubiy emas edi...”

Allomaning taqdiriga, davr ziyolilariga sezilarli ta'sir qilgan mazkur maqolani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra tartib beriladigan Behbudiyning "Tanlangan asarlar" to'plamiga kiritish muhim deb hisoblayman.

Chunki aynan shu maqola va unda ilgari surilgan g'oyalar mustabid hukumat fitnalari va ular tayinlagan ba'zi chalamullalarning "da'vat"lariga qaramasdan, jamiyatni uyg'otishga xizmat qilgan. Shu tufayli Behbudiy zamon illatlariga qarshi kurashishda yangi yo'llar izladi va xalqning e'tiborini ilmsizlik keltirib chiqargan muammolarga qaratish maqsadida teatr san'atidan unumli foydalandi. U birinchilardan bo'lib xalqni ma'rifat sari chorlovchi "Padarkush" dramasi yozdi.

To'g'ri, "Padarkush" haqida ko'p yozildi. Mazmuni ham barchaga ayon: bir boy farzandini yaxshi tarbiya qilmagani uchun o'z o'g'li uning qotiliga aylanadi. Lekin oila (Turkiston) tanazzuli otakushlikdan (Mirzo Ulug'bek davridan) boshlanganini jadidlar rasman aytishmagan bo'lsa-lar-da, asarlarida, darsliklarida ishoralar qilishgan. Sharq davlatlari, jumladan, Turon... Turonning xonliklarga bo'linishlari, birodarkushliklar, ilm-ma'rifat asosida rivojlanish o'rninga kibrga, aysh-u ishratga berilishlar... Keling, parchalanish sabablari haqida va ushbu drama yaratilganiga qadar aytilgan, ya'ni Behbudiy xulosasiga quloq tutamiz: *"Ta'rix deyurki, bir zamon keldiki, ulamo va umaroi islom jubun va tanbal, ayshi beparvo, digar tarafdin bir-birlari ila muxolif bo'ldilar. Ta'lim va tadrisi ulamoyi din lodonlar majlisini tarjih (ustun – H.S) etdilar. Umaro va salatini islom nohaq yerg'a yuz minglab ahli islom qonini to'kub, taraf-taraf bo'ldilar. Ulamo bo'lsa, umaro nonig'a va maoshig'a ko'z tikib, muqobillarining takfirilariga qadar ilgari ketdilar. Xusumati mazhabbiyya va ta'sib ilmiyyag'a ahamiyat berdilarki, nasroniyat olamidaki va papaliq zamonindaki itxiloflarga monand nizolar olami islomni parchalanmoqig'a sababiyat berdi!"* ("Ta'rix va jug'rofiya"dan).

"Padarkush"ni shu fikrlarni muntazam takrorlab yurgan inson sifatida mutolaa qilsak, asardan har birimiz o'zimizga mos ramzlarni topa olamiz. Masalan, padarkush atamasining o'zi yurtimiz tarixidagi ulkan fojiani eslatadi. Behbudiy dramani nega "Padarkush yoxud buyuk saltanat fojiasi" deya nomlamadi? Mustamlakachi senzurasini bunday asarni chop ettirmasligi aniq edi. Hatto pyesani senzuradan o'tkazolmay ikki yil sarson bo'lgach, 1812-yilda ruslarning fransuzlar ustidan Borodino jangida g'alaba qozonganligining 100 yilligiga "bag'ishlagan"idan keyingina ruxsat olgani fikrimizga asosdir. Qolaversa, buyuk saltanat fojiasi haqida yozilsa, jadidlik harakatining maqsadi ayonlashib, uning namoyandalari avvalroq qatag'onga uchrashi muqarrar edi. Shu bois jadidlar yaratgan asarlarda asosiy fikr ramzlar vositasida aytishga harakat qilinadi.

Ramzlar "Padarkush" asarida yetarli. Masalan, "3 parda, 4 manzarali, milliy birinchi fojia". Muallif "milliy birinchi fojia" deya faqat asarning dastlabkisi ekanligini ta'kidlayapti, desak Behbudiyga munosib baho bermagan bo'lamiz. Bu gapni "birinchi milliy fojiamiz" yoki "milliy fojiamizning birinchi qadami", deya o'qisak ma'no yanada kengaymaydimi? Asardagi Boyning millat ziyolisiga munosabati Mirzo Ulug'bek qatli va hatto, undan avvalroq Amir Temur barpo etgan saltanatni jaholat sabab bo'lib olgan hukmdorlar fojiasining ramzidir.

Xalqimizning ilmga intilmaydigan, to'y va ma'rakalardan bo'shamaydigan toifasi bugun ham katta muammo. Bundaylar o'zlarigagina zarar qilsalar mayli edi, taassufki, ularga o'xshashga zo'rma-zo'raki intiluvchilar sonining ko'payishi millatni tanazzul botqog'iga botiradi.

Agar Behbudiy bizning zamonamizga kelib qolsa, u bugungi kun o'zbek ziyolilariga qanday da'vat bilan chiqqan bo'lar edi? Shu savol meni ko'p o'ylantiradi. Shukrki, jadid bobolarimiz orzulagan hurriyatga erishganmiz. Bugun ma'rifat yo'lida yanada mas'uliyatli va sadoqatli bo'lish vazifasi har birimizning zimmasida turibdi. O'ylayman, Behbudiy – dunyo tarixi va taraqqiyoti, anbiyolar, ixtirolar haqida chuqur bilimga ega, donishmand siyosiy arbob, hozir ham ma'rifat yo'lidan qaytmagan bo'lardi. U Mendeleyev jadvalida uchraydigan barcha kimyoviy elementlar O'zbekiston zaminida borligini ro'kach qilish bilan kifoyalanmasdan, ularning har birini o'zimiz qazib oladigan texnikalardan tortib, qayta ishlaydigan va eng asosiysi, xomashyo sifatida sotib kun ko'radigan emas, balki ularni tayyor mahsulotga aylantirib, ham xalq, ham davlat xazinasini boyitadigan, atrofdagi gegemon davlatlar xurujlaridan o'z himoyasi uchun zarur bo'ladigan betakror qurol yaratishdan tortib, millat koriga yaraydigan zamonaviy zavodlar qurib, ularni boshqaradigan komil mutaxassislarni tayyorlashgacha bo'lgan masalalarni ziyolilarimiz oldiga qo'yg'an bo'lardi, menimcha.

Ul zotning o'zi deganidek, *"Zamona har kuni yangilashur. Yangi ilm va yangi fikrlar va fununi zamoniyani darbar (o'zida saqlagan, tashuvchi) qilgan odamlarni talab qilur!"*

Muxtasar TOJIMAMATOVA
yozib oldi.

MUJDA



OZAR OLIMASINING QO'SH TUHFASI

Ozərbaycan zəminində təvəllud topib, XX əsr o'zbek mumtoz adiblari yonidan o'rın olgan Maqsd Shayxzoda hech shubhasiz ikki millatga birdek daxldor adabiy shaxsiyattir. Uning asarlari ikki millat o'rtasidagi do'stlik aloqalarining kuchayishiga, adabiy hamkorlikning yangidan yangi ufqllari ochilishiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

Shayxzodaning: *"Umrlar bo'ladi,ki, Tirigida o'likdir. O'limlar bo'ladi,ki, O'lgan odam tirikdir"*, kabi she'riy misralari aforizm holiga keldi. Bir qancha doston va balladalari hali-hanuz o'zbek o'quvchisi tomonidan sevib o'qiladi. "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi" kabi sahna asarlari ma'rifət mayog'i, vatanparvarlik ruhi, milliy pafosi bilan o'zbek dramaturgiyasi tarixini bezab turibdi.

Maqsd Shayxzoda Nizomiy vatani, Ganja o'lkasining farzandi. "Umrım bino bo'ldi Ozarbayjonda, Kechdi bolaligim u gul makonda". Yigilitik yillari, to'g'rirog'i, hayotining eng go'zal pallalari O'zbekiston bilan bog'liq. Qismat yozig'i bois o'zbek tuprog'iga kelib o'rınashgan Maqsd Shayxzoda degan nihol O'zbekistonda o'sdi, ulg'aydi, meva berdi.

Shayxzoda o'zbek yosh adiblari, shoirlari, filologlari tarbiyasi bilan shug'ullandi. Pedagog sifatida oliy o'quv yurtlarida yoshlarga saboq berdi.

Shu bilan birga o'zbek adabiyoti tarixining zukko bilimdoni sifatida bir qancha risolalar yozdi.

"Hazrat Navoiyning o'pib qo'lini, O'zbek vodiysida otimni surdim. Ijod karvonining uzoq yo'lini Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim, yurdim".

Shayxzodaning hazrat Alisher Navoiyga ehtiromi shunday beqiyos edi. Umr bo'yi Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy gulshanidan gul terdi; ustoz san'atkor alloma shoirlar dargohida shogird maqomida bo'ldi; tinimsiz o'qidi, o'rgandi; ustozlarining badiiy mahoratini tolibi ilmlarga o'rgatdi ham.

Darvoqe, o'zbek navoiyshunoslari bugun ham biror tadqiqot yozar ekan, Shayxzoda adabiy-nazariy qarashlarini, xususan, "Navoiy ijodida folklor motivlari", "Genial shoir", "Navoiyning Samarqandda kechirgan kunlari", "Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida", "G'azal mulkingning sultoni", ayniqsa, turkum maqolalardan tarkib topgan "Ustodning san'atxonasida" kabi teran tadqiqiy asarlarini aslo chetlab o'ta olmaydi. Shuningdek, Shayxzodaning "Tazkirachilik tarixidan" deb nomlangan alohida bir risolasi Alisher Navoiyning ozarbayjonlik tazkirachi shogirdi bilan bog'liq asar sanaladi.

Yaqinda Maqsd Shayxzodaning "G'azal mulkingning sultoni", "Tazkirachilik tarixidan" nomli ikki kitobi Bokudagi "Ilm va tahsil" nashriyotida bosilib chiqdi. Mazkur asarlarni zahmatkash olim filologiya fanlari doktori, professor Olmas Ulvi xonim ozarbayjon o'quvchilariga taqdim qildi. Muhtarama Olmas opa "Maqsd Shayxzoda va uning "G'azal mulkingning sultoni" kitobi" deb nomlangan so'zboshisida yozadi: "Maqsd Shayxzoda shunday bir hayot, shunday bir umr kechirdiki, bu qismat ikki qardosh xalqning asrlar bo'yi adabiy aloqalari tarixining jonli vorisi, ma'naviy ko'prigi bo'lajakdir".

Haqiqatda shunday. Bugun ozarbayjon o'quvchisi Maqsd Shayxzodaning mo'tabar ikki kitobini mutolaa etib, Olmas Ulvi xonim so'zlariga ishonch hosil qiladi va tarjima uchun muhtarama professor opamizga chin yurakdan rahmatlar aytishadi.

Jumladan, biz ham, Olmas Ulvi xonimga shunday ezgu zahmatlari uchun tashakkur aytishga burchlimiz.

B.KARIM

MUTOLAA



IKKIMIZNING ERTAKLARIMIZ

"Qanot" loyihasi o'nga yaqin yosh va umiddi qalamkashlar ijodini targ'ib qilish va ularning kitoblarini chop etish borasida jonbozlik ko'rsatib, adabiy jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'layotir. Poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida mazkur loyiha doirasida chop etilgan navbatdagi kitob taqdimoti ham avvalgilari kabi ko'tarinki ruhda o'tdi.

Iste'dodli shoir Mansur Jumayev va uning turmush o'rtog'i, shoira Shohsanam Nishonova qalamiga mansub she'rlar, tarjimalardan tarkib topgan "Ikkinchi zamonning ertaklarimiz" nomli kitob taqdimotida adabiyotshunos olimlar, shoir-yozuvchilar,

jurnalistlar va adabiyot ixlosmandlari ishtirok etdi.

Taqdimotda so'zga chiqqan filologiya fanlari doktori, professor Abdulla Ulug'ov Mansur Jumayev barcha dinlarni yaxshi bilgan nuqtadon shoir, tasavvuf ta'limotiga asoslangan adabiyotning yorqin xususiyatlarini zukkolik bilan ilg'ab olgan ilmiy ijodkor bo'lganini alohida ta'kidladi.

Bundan tashqari, har ikki muallifning nafaqat yetuk shoir, balki mutarjim sifatida ham shakllanib ulurgani, turkiyalik, eronlik, vyetnamlik ijodkorlarning she'rlarini o'zbek tiliga mahorat ila tarjima qilgani ham e'tirof etildi. "Ikkinchi zamonning ertaklarimiz" to'plami mundarijasidan o'rın olgan she'rlari va

tarjimalari taqdimotda bildirilgan fikrlarning amaliy tasdig'i, deyish mumkin.

– Mansur Jumayevning vafot etganiga haligacha ishonmayotganlardan biriman. Qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, undan katta adabiy meros, yorqin iz qoldi. Uning turmush o'rtog'i Shohsanam Nishonova ana shu boy xazinani asrab-avaylab kelayotir, – dedi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Shodi Otamurod.

Taqdimot davomida "Qanot" loyihasi doirasida Mansur Jumayev va Shohsanam Nishonova ijodiga oid taqrizlar, audio va video she'rlar tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi ham bo'lib o'tdi.

D.DO'STBEKOV



E'TIROF

Bayoniy “Xorazm tarixi” asarida keltiradi: “Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi”.

Chindan, tarixiy mavzuda tadqiqotlar olib borayotgan muarrix xolis bo'lsagina moziydagi jarayonlarni haqqoniy tahlil eta oladi. Tabiiyki, buning uchun tarixchi siyratida adolatparvarlik, e'tiqod va iymon mustahkam bo'lishi, u o'z tanlagan yo'lidan sobitqadamlik bilan yura bilmog'i zarur.

Sakson olti yoshni qarshilagan taniqli tarixchi olim, ustoz Rustambek Shamsutdinov – Andijondagi “Meros” xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiyasi jamoat fondi raisi, Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag'on qurbonlari xotirasi” muzeyi direktori, “Vodiynoma” jurnali bosh muharriri, professor. Bu fidoyi inson ana shunday xolislik tamoyillariga nafaqat so'zida, yozgan asarlarida, balki hayotida ham amal qilib kelayotgan qat'iyatli shaxs sanaladi.

Ustozning harakatchanligi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, ko'plab iqtidorli yoshlarni atrofiga jipslashtirib, ularning ilmiy ishini yoqlashiga, maqola va kitoblarni nashr etishga yordam berishi doim tildan tilga ko'chib yuradi. Qisqasi, domlani talibi ilmlarning sevimli murabbiysi, fan fidoyisi deb atash mumkin.

Sir emas, ayrim kekka olimlar ilmiy daraja va unvonlarning hammasini olib bo'ldim, kitoblarni ham chiqdi, endi do'stlar bilan otamlashib yurganim ma'qul deya ilmga, jamiyatdagi jarayonlarga ancha befarq bo'lib qoladi. Ular hattoki, o'z sohasidagi yangiliklarga, ijtimoiy-siyosiy jarayonga ham mutlaqo qiziqmay qo'yadi. Yana bir achinarli jihat shuki, ayrim tadqiqotchilar yoqlash osonroq bo'lishi uchun yengilroq mavzuni ilmiy ish sifatida tanlaydi. Na ilm-fanga, na jamiyatga foydasi bo'lmagan tadqiqotlar bilan mashg'ul bo'lishadi. Aslida esa ziyoli, ilm-u fan xodimi yangiliklardan, sohadagi o'zgarishlar va umuman, hayot bilan hamnafas yashaydigan keng dunyoqarashli shaxs bo'lmog'i lozim.

Muarrix ustozimiz Rustambek Shamsutdinov tom ma'noda ziyoli, yangiliklardan, ijtimoiy jarayondan xabardor, keng dunyoqarashli shaxsdir. U doim tarixiy qo'lyozma va hujjatlarni izlash, ularni o'rganish, boshqa manbalar bilan taqqoslash, shulardan kelib chiqib xolis va



TARIX ILMINING RUSTAMI DOSTONI

haqqoniy xulosa chiqarishga harakat qiladi. Shogirdlarini ham shunday ishlash tartibiga chorlab charchamaydi. Dunyoning qaysi davlatida bo'lmasin, shunchaki sayohat qilib qolmasdan, u yerdagi muzey, kutubxona, ilmiy muassasalardan Vatanimiz tarixiga oid qo'lyozma, hujjat nusxalarini, kitoblarni izlab, o'zi bilan olib kelishning payida bo'ladi. Ustozning Andijon shahridagi uyi, u kishi rahbarlik qilayotgan muzeydagi kutubxona javonlari dunyo davlatlarida nashr etilgan adabiyotlar, ilmiy jurnallar bilan to'raligining sababi ham shunda.

Domla yov qochganda qilich sug'urgan mardi maydonlardan emas. U kishi naq sovetning qonli qamchisi odamlar boshi uzra aylanib turgan zamonda, o'tgan asrning 70-yillarida qatag'on domiga tushgan millatdoshlarimiz taqdiriga oydinlik kiritish maqsadida yeng shimargan. Umrlarining eng gullagan davri Moskva, Leningrad shaharlaridagi xilvat arxivlarda qog'oz g'uborini yutib, bir vaqtlar ne-ne yurtdoshlarimiz tortgan qiynog'-u azoblarni yuragidan o'tkazib, dilxasta bo'lib o'tdi. U davrlar o'ta qaltis edi, salgina nojo'ya so'z yoki ishora kishini o'sha shahid jadid

bobolarga qismatdosh qilib qo'yishi hech gap emas edi. Rustambek Shamsutdinov haq yo'lidan aslo chekinmadi, bobolarga bosilgan tamg'alarini olib tashlashga astoydil bel bog'ladi va mana bugun o'z murodiga to'la-to'kis yetdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, domla dunyoning qaysi qit'asida bo'lmasin, mudom tariximiz xususida qayg'urib, shunga doir asarlar bilan tanishadi, olimlar bilan muloqot qiladi. Hatto haj ziyorati, umra ibodatini ado etish uchun Makka va Madinadek ulug' shaharlarga borganida ham, avvalo, Alloh zikri bilan mashg'ul bo'lib, so'ngra quloqlashtirish siyosati sabab u yerga borib qolgan vatandoshlarimiz taqdiri bilan qiziqib, izlanish olib borgan shuning dalilidir.

Ustozning sa'y-harakatlari, asarlari orqali Chor imperiyasi va sobiq Sovet davri tarixshunosligida kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun, “katta terror” yo'nalishi muammolarini tadqiq etuvchi o'ziga xos Andijon ilmiy maktabi yaratildi.

Tadqiqotlarida ushbu mavzularni xolis, haqqoniy yoritish maqsadida respublikamizning turli arxivlari bilan kifoyalanib qolmay, 30 dan ortiq davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlardan keng miqyosda foydalandi va ular asosida tarixiy haqiqat aks etgan sara asarlar yaratdi.

Professor Rustambek Shamsutdinov o'z ilmiy faoliyati davomida Kembriji, Oksford, Shimoliy Karolina, Moskva, Indiana, Bonn, Anqara, Dehli, Mozori Sharif kabi nufuzli universitetlarning taniqli olimlari bilan yaqindan ilmiy aloqa o'rnatgan fan fidoyisidir.

Ayrimlar tarixchilarni faqat arxiv manbalari, arxeologik tadqiqotlar, etnografik ma'lumotlar-u qo'lyozmalarni varaqlab, shinam xonada o'tirib kitob bitadi, deb o'ylaydi. Aslida, bu manbalarni qo'lga kiritish, ilmiy ekspeditsiya deb atalmish zahmatli safarlar chog'ida ilm mas'uliyati va mashaqqatini his qilish, turli murakkab vaziyatlar ichra yo'l yurish, joyida material yozish tarixchi olimdan kuchli iroda bilan birga jismoniy kuch-quvvat va sabr-toqat talab qilishini hamma ham bilavermaydi.

Ustoz rahbarlik qilayotgan “Meros” ilmiy-amaliy xalqaro ekspeditsiyasi jamoat fondi 2001-yil 21-sentyabrda Andijonda faoliyatini boshlagan. Ilmiy safarlar tashkillashtirishni maqsad qilgan fond faoliyati keyingi yillarda yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarildi.

Jamoat fondi sobiq tuzum davrida quloq qilingan, qatag'on o'gri uchragan ajdodlarimiz hayotini, ular badarg'a etilgan, zulm ko'rgan qamoqxonalardagi iztirobli davrni, bobolarimizning hurriyat yo'lidagi sa'y-harakatlarini ilmiy tadqiq etish, ekspeditsiyalar uyushtirish orqali qimmatli ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullanadi.

“Meros” jamoat fondi o'tgan davr mobaynida respublikamizning barcha hududida bo'lib, qatag'on qilingan, o'sha davr jabrini chekkan, “quloq” tamg'asi urilgan kishilar, ularning avlodlari bilan bog'liq xotira, surat hamda hujjatlarni aniqladi va atroficha o'rgandi. Keyin ishni keng ko'lamda davom ettirib, Ukraina, Qozog'iston, AQSh, Yevropa davlatlari va Rossiyaning turli hududlariga xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiyalar uyushtirib, mavzuga

doir ma'lumotlar to'pladi. Shuningdek, o'zbekistonlik “quloq”lar badarg'a etilgan Xerson, Shimoliy Kavkaz, Stavropol, Qozog'iston hududlarida saqlanib qolgan turli mehnat lagerlarida bo'ldi. Ayanchli yillardagi holatni bevosita joyida o'rgandi.

Ekspeditsiya a'zolari turli arxiv, kutubxonalardagi hujjatlar bilan cheklanib qolmasdan, qattol davr fojialarining guvohi bo'lgan insonlar bilan uchrashib, suhbatlashdi.

Domla yaratgan asarlarning ayrimlari rus, ingliz, portugal, fransuz, hind, bengal, urdu, arab va boshqa tillarga tarjima etilgan. Xalqaro kongresslardagi sermazmun ilmiy ma'ruzalari tilga tushgan professor Rustambek Shamsutdinov Shimoliy Karolina va Kembriji xalqaro biografik institutlarining hay'at a'zosi etib saylangan.

Tariximizning turli davrlariga oid yuzdan ortiq fundamental asar, monografiya va darsliklar, 700 dan ortiq ilmiy-ommabop maqola muallifi bo'lgan ustozning g'ayrat-shijoatiga biz shogirdlari hamisha qoyil qolamiz. U kishi nafaqat ilmiy doiralarda, balki ommabop nashrlarda ham bugungi islohotlar, o'zgarishlar xususida xalqchil maqolalar bilan ko'rinishni kanda qilmaydi. Ustozimiz hali qatag'on mavzusi kun tartibiga chiqmagan paytlarda ham shu masalani o'rganish maqsadida arxivlarda zahmat chekkan fidoyi olimlardan biridir. U kishi sovet davridan buyon jadid namoyandalar faoliyati, umuman olganda jadidlik harakatini bevosita arxiv manbalari asosida tahlil etayotir.

“Jadid” gazetasiining ilk sonidan buyon “Qatag'on qurbonlari” ruhnida u kishining sobiq tuzum davrida fojiali taqdirga duch kelgan minglab yurtdoshlarimiz haqida to'plagan ma'lumotlari muntazam chop etilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Bundan tashqari, mazkur gazeta-ning deyarli har bir sonida domlanning maqolalari nashr etilmog'da. Yuzlab fidoyi ma'rifatparvarlarning hayoti, faoliyati va taqdirini hujjatlar asosida tadqiq etish jarayonida ular kechirgan fojialarni ham yurakdan o'tkazish, ko'ngildan kechira bilish talab qilindi. Buning uchun olim shaxsiyati naqadar matonatli bo'lishi kerak. Professor Rustambek Shamsutdinov ana shunday matonatni o'zida mujassam eta olgan chinakam olimdir.

O'rni kelganda bir taklif bildirib o'tsam: tahririyat jamoasi tashabbus ko'rsatib, ustozning “Jadid” gazetasida chop etilgan maqolalari jamlangan bir to'plam chop etsa, ayni muddao bo'lar edi. Jadidlar faoliyatini arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlardagi manbalar bilan o'zaro taqqoslash asosida bitilgan, ta'sirchan badiiy uslubda, chuqur dard bilan yozilgan ushbu maqolalar yaxlit kitob qilib jamlansa, o'ylaymanki, ko'pchilik uchun foydali manbaga aylanadi.

Serg'ayrat, qat'iyatli ustoz ayni damda ham o'z sevimli ishi – turli arxivlarda hujjatlarni o'rganish, yana yangi maqolalar, kitoblarni yozish bilan band. Ustozga ilmiy va ijodiy faoliyatida muvaffaqiyatlar tilab, xalqimiz baxtiga hamisha salomat bo'lsinlar, deymiz!

Umid BEKMUHAMMAD,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

JAHON AYVONIDA

G'AZODA YAROQLI YERLAR KAM QOLDI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) Isroilning qirg'inbarot urushi qamaldagi G'azo sektorida qishloq xo'jaligini vayron qilgani, yaroqli ekin maydonlarining atigi 4,6 foizi beshikast qolganini ma'lum qildi.



FAOning yozma bayonotiga ko'ra, muassasa bosh direktori yordamchisi Abdelhakim Al-Vayer shunday dedi: “Biz hozirda G'azoga bir kaft urug' yoki bir qop o'g'it olib kelolmayapmiz. Gumanitar yordam tiklanganidan keyin bu muammo yechilishi kerak. Ayni paytda biz G'azo fermerlarining oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash yo'llarini o'rganayapmiz”.

Tashkilot vakili yaqinda Rafah va Xon-Yunus hududlarida 200 fermerga yordam berganini bildirdi.



SOBIQ PREZIDENT KORRUPSIYADA AYBLANDI

Armaniston sobiq prezidenti Serj Sargsyan o'ta yirik miqdorda pora olish va noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha ayblov e'lon qilindi. Bu haqda “Sputnik Armaniston” xabar berdi.

Korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasiga ko'ra, Sargsyan 2000–2018-yillarda Armaniston mudofaa vaziri, bosh vaziri, prezidenti lavozimini egallab turgan payti qonun bilan taqiqlangan bo'lsa-da, tadbirkorlik bilan shug'ullangan.

Bundan tashqari, u ishonchli shaxslar orqali tijorat kompaniyalarini tashkil etish va ularni boshqarishda ishtirok etish uchun xizmat mavqeyidan foydalanganlikda gumon qilinmog'da. Sargsyan tanishi orqali Ararat viloyatida bitum ishlab chiqaruvchi zavod qurilishida qatnashgan.

U kompaniya aksiyalari ko'rinishida pora olganlikda ham ayblanmog'da. Dastlabki tergov yakuniga yetgan, Sargsyaning ishi ayblov xulosasi bilan Armaniston

Korrupsiyaga qarshi kurash sudiga jo'natilgan.

HAVO TAKSISI SINOVDAN O'TKAZILDI

Dubayda to'liq elektr bilan ishlaydigan uchuvchi boshqaradigan havo taksilarining birinchi sinov parvozi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Harorat 43 daraja selsiydan yuqori bo'lgan og'ir iqlim sharoitiga qaramay, havo taksisi muammosiz parvoz qilgan va uning ichidagi konditsionerlar yaxshi ishlagan.



“Gulf News” xabar berishicha, sinov paytida BAA valiahd shahzodasi, bosh vazir o'rinbosari, mudofaa vaziri va Dubay ijroiya kengashi raisi shayx Hamdan bin Muhammad bin Rashid Al Maktum ham ishtirok etgan.

IKKI HAFTA ICHIDA 900 DAN ORTIQ ZILZILA

Yaponiyaning janubidagi olis va kam aholi yashaydigan orollarda ikki hafta ichida 900 dan ortiq zilzila sodir bo'ldi. Bu haqda “BBC” xabar berdi.



Rasmiylarning aytishicha, 21-iyundan beri Tokara orollari atrofidagi dengizlarda seysmik faollik “juda yuqori” bo'lib kelmog'da. Bu haqda chorshanba kuni 5,5 ball kuchdagi zilzila sodir bo'lgandan so'ng ma'lum qilindi.

**SHIMOLIY KOREYA UKRAINADAGI
URUSHGA ASKAR YUBORMOQCHI**
Ukraina razvedkasi ma'lumotiga ko'ra, Shimoliy Koreya Ukraina hududiga hujum qilayotgan Rossiya uchun qo'shinlar sonini uch barobarga ko'paytirmoqchi va qo'shimcha 25-30 ming askar yubormoqchi.



“CNN” taxminicha, qo'shinlar kelgusi oylarda Rossiyaga yetib kelishi mumkin.

Bundan avvalgi yordam noyabr oyida yuborilgan, o'shanda 11 ming askar Kurskni qaytarib olishda yordam bergan. G'arb rasmiylarining aytishicha, Shimoliy Koreyaning 4 mingga yaqin askari halok bo'lgan yoki yaralangan. Shunday bo'lsa-da, Pxenyanning Moskva bilan hamkorligi yanada rivojlanib boryapti.

NASA YASHASH UCHUN QULAY HARORATGA EGA YANGI SAYYORANI ANIQLADI

Astronomlar 34 yorug'lik yili uzoqlikda joylashgan TWA 7 yoki CE Antilae nomli yosh, qizil mitti yulduz atrofida aylanayotgan, massasi Yerdan 100 baravar katta bo'lgan sayyoraning “ishonchli dalillari”ni qayd etdi.



NASA xabar berishicha, dastlabki tahlil natijalariga ko'ra, bu obyekt Farengeyt bo'yicha 120 darajaga yaqin haroratga ega bo'lgan yosh, sovuq sayyora bo'lishi mumkin. Olimlarning ta'kidlashicha, hayot taxminan 5 daraja Farengeytdan boshlab 251 daraja Farengeytgacha bo'lgan haroratda paydo bo'lishi va rivojlanishi mumkin.



Boshlanishi 1-sahifada.

So'ng ustozining tavsiyasi bilan Ufa shahridagi mashhur Oliy madrasasida tahsil oladi. Bu yerda keyinchalik mashhur shoir bo'lib yetishgan Mag'jan Jumaboy, yozuvchi Beimbet Maylin bilan ham-saboq bo'ladi. 1913–1916-yillarda esa Orenburg o'qituvchilar seminariyasida o'qib yurganida taniqli publitsist, turkolog Ahmad Boytursun bilan tanishadi.

Shu yillarda Orenburgda chop etilgan “Qozoq” gazetasida ilk maqolalari bilan ishtirok eta boshlaydi. Jumladan, “Qaptig'ay” imzosida qator maqolalari, “To'liqin”, “O'zgarishga”, “Umid” kabi ko'plab she'rlari chop etiladi. Uning maqolalari jadidlik g'oyalari bilan to'yingan bo'lib, milliy o'zlik va ruhni tashviq qiladi hamda qozoq bolalarining o'z ona tilida ta'lim olishini olqishlaydi. U bolalar eng avval milliy shoirlar Abay, Ahmad va Mirjaqib o'lanlarini bilishi shart deb hisoblaydi. Shuningdek, tatarlarning “Vaqf”, “Sho'ro” jurnallarida ham chiqishlar qiladi.

Yosh Bilolning siyosiy tafakkuri shakllanishida 1916-yilgi “mardikorlikka olish voqealari” hamda A.Bukeyxonov, A.Boytursun, A.Kenjin, F.Galimjanov kabi Alash yetakchilarining qarashlari muhim o'rin egallaydi. U ana shunday ilg'or fikrlar ta'sirida Minsk shahriga borib, qozoq yigitlariga yordam ko'lini cho'zadi. Lekin mustabid va beqaror siyosiy vaziyat milliy muammolarni hal qilishga yo'l qo'ymas edi. Ilk bor jiddiy siyosiy inqirozni boshdan kechirgan Bilol najot ilmda ekanini anglab yetadi va 1917-yildan Orenburgdagi qishloq xo'jaligi bilim yurtida o'qiy boshlaydi.

Shu bilan birga, u Kopaldagi tatar maktabida o'quv bo'limiga rahbarlik qiladi. 1917-yilning kuzida Yettisuv viloyatidagi Verniy shahrida bo'lib o'tgan musulmonlar syezdida Muhammadjon Tinishbayev bilan tanishadi. Bu voqea dunyoqarashini keskin o'zgartirib yubordiki, u qurultoy so'ngida “Alash” partiyasiga a'zo bo'lib, yurt hurriyati va ozodligi uchun kurashga qat'iy bel bog'ladi. Muhammadjon Tinishbayev qurultoydan so'ng Toshkentga kelib, tez orada Qo'qon shahrida e'lon qilingan Turkiston muxtoriyati hukumatining rahbari etib tayinlanadi.

Bilol Suleyev esa 1918–1919-yillarda Semipalatin shahridagi Alixon Bukeyxonov rahbar bo'lgan Alash O'rda hukumatiga sidqidildan xizmat qiladi. “Sari–Arqa” gazetasining 1918-yil dekabridagi sonida bosilgan teleqrammada Bilol Alash o'rdaning Kopal uyezdi bo'limi boshlig'i sifatida qayd etilgan. Shuningdek, ushbu noma bolsheviklarning oddiy xalqqa qilayotgan dahshatli zulmlaridan xabar beradi. U muxtor hukumat himoyasi uchun muallimlikni tashlab, qurolli yigitlar guruhiga qo'shiladi. Afsuski, 1919-yil so'ngida qizil armiya shiddatli va qonli janglardan keyin Sibir, Orenburg, Oqto'ba hududlarini qo'lga kiritib, Alash o'rda hukumatini ham tugatadi. Hukumat faollarining bir qismi muhojirotga

ketishga majbur bo'ldi, boshqasi noma'lum sabablar bilan o'lim topdi. Aksar qismi esa sovet hukumati xizmatiga kirishdan bo'lak chora topa olmadi.

Bilol Suleyev ham bir muddat ishsizlikdan so'ng 1920-yili maorif sohasiga qaytishga majbur bo'ladi. Bunda rafiqasi – muallima Fotima Gabitova (1903–1968)ning xizmati katta bo'lgan. Oradan bir yil o'tib u Yettisuv viloyati xalq ta'lim boshqarmasi mudiri lavozimiga tayinlanadi.

Bolsheviklar Alash o'rda hukumatini kuch bilan tarqatib yuborgan bo'lsa-da, uning a'zolari qalbidagi istiqloqlar erk orzusini yo'q qila olmadi. Ular Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi majlislarini munosabati bilan Toshkentda, Olmaotada, Orenburgda to'planishar ekan, millatni ma'rifatga boshlash va hurriyatga erishish bo'yicha harakatlarni rejalarni ishlab chiqishar edi. Ular Muhammadjon Tinishbayev, Turor Risqulov boshchiligidagi milliy istiqloqlar kurashi qahramonlaridan ko'p narsalarni umid qilishardi. Erklarparvarlar milliy g'oya, din va milliy qadriyatlarini yo'qotmaslikka qancha tirishmasin, sovet hokimiyati kun sayin kuchayib boraverdi.

Bilol Suleyevning tinimsiz mehnati tufayli Yettisuvning aksar ovullarida boshlang'ich maktab va internatlar ish boshladi. Ayni paytda uning ijodiy faoliyati ham to'xtab qolgan yo'q. “Matay”, “Qaptag'ay”, “Buyras” taxalluslari ostidagi ocherklari, she'rlari, maqolalari bilan vaqtli matbuotda faol ishtirok etdi. Xususan, “Tilshi” gazetasining deyarli har sonida “Qaptag'ay” imzosi ostida uning materiallari bosilardi.

Taniqli ma'rifatparvar 1925-1926-yillarda Qozog'iston Maorif xalq komissarligi kasbiy ta'lim va texnikumlar masalalari bo'limi mudiri bo'lib ishlagan kezlari qisqa muddatda 19 ta boshlang'ich maktab va 11 ta texnikumni ochishga muvaffaq bo'ladi. Uning rahbarligida Toshkentdagi qozoq pedagogika instituti Semipalatin shahriga, Orenburg pedagogika instituti Oqto'ba shahriga ko'chirib keltiriladi.

1926-yil 26-fevral–5-mart kunlari Boku shahrida lotin alifbosiga o'tishga bag'ishlangan qurultoyda u bir qator taniqli qozoq pedagog va olimlari bilan birga ishtirok etadi. 1928-yili u O'roz Jondo'sov bilan Olmaota shahrida birinchi qozoq universitetining ochilishiga bosh-qosh bo'ladi.

Bilol muallim 1929-yil Oqto'ba viloyati xalq ta'limi bo'limi mudiri vazifasiga tayinlanib, oilasi bilan u yerga ko'chib keladi. O'sha yilning so'ngida esa Semipalatin pedagogika instituti direk-



Bahrom IRZAYEV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

torligiga o'tkaziladi. Albatta, uning bu qadar samarali faoliyat yuritishi ayrim g'arazli kimsalarga yoqmasligi tayin edi. Ular zimdan Bilolga tish qayrab yurardi. 1930-yilning yozida So'zoq va Sarisuv tumanlarida sovetlarning g'ayriinsoniy iqtisodiy siyosatiga qarshi yuz bergan xalq qo'zg'oloni hasadchilarga qo'l keldi. Ana shu voqea-hodisalar jarayonida ardoqli qozoq farzandlari ham o'z xalqining yonini olib, sho'ro ma'murlaridan zulmini bas qilishini talab etadi. Biroq sovetlar hukumati barcha aybni Alash o'rda a'zolarining bo'yniga ilishga intiladi. Shu yili qozoq xalqining eng ilg'or ziyolilaridan qariyb 30 nafari, jumladan, Muhammadjon Tinishbayev, Xalil Dosmuhammedov, Bilol Suleyev birin-ketin hibsga olinadi. Noyabr oyida esa qahramonimizning uchinchi farzandi Ozod dunyoga keladi. Biroq...

Bilol Suleyev nohaq ravishda zax turmada uzoq vaqt ushlab turildi. Nihoyat, 1932-yili u o'zining aybsizligini isbotlab, ozodlikka chiqdi. Bu vaqtda uning xotini Fotima ikki farzandi bilan Olmaotaga qaytib ketgan edi.

Mislsiz nohaqliklarni boshidan kechirgan Bilol Suleyev adolat istab Moskvaga yo'l oladi. Lekin u davrda haqiqat qaror topishi amrimahol edi. U 1935-yil To'rtko'l shahriga kelib, Qoraqalpog'istonning Maorif xalq komissarligi oliy va o'rta maktablar bo'limida ish boshlaydi. Qisqa muddatda mehnatkash, fidoyi xodim sifatida taniladi. Yevdokiya Ivanovna ismli ayol bilan turmush quradi. Ular bir umr baxtli yashashi mumkin edi, ammo...

1937-yil. Mash'um qatag'onning sovuq nafasi har bir uyga, har bir qalbgacha kirib keldi. Har kuni bir sovuq xabar eshitib, yuragini oldirib qo'ygan odamlar eshik hatlab ko'chaga chiqmay qo'ygan. O'sha yilning 7-sentyabr tunida balo-qazo To'rtko'l shahri, Inqilob maydoni ko'chasi, 6-uyning eshigini ham buzib kirdi. Tintuv, xatlov, hibbs, yig'i-sig'i, o'lik sukunat...

O'sha kuni imzolatilgan shaxsiy anketada oila a'zolari haqida ham ma'lumotlar qayd etilgan. Ukalari – o'qituvchi Muborak (1897), ikki yilga qamalib 1936-yil ozodlikka chiqqan Abdukarim (1906), Almati davlat teatrida xonanda bo'lib ishlaydigan Hamid (1908), iqtisodchi Majid (1910). Otasi – Suley hoji, kollektivlashtirish davrida 200 bosh qo'yi, 20 ta oti, 20 sigiri, 5-6 tuyasi

davlat foydasiga musodara etilib, o'zi qu-loq sifatida siyosiy huquqlaridan mahrum etilgan...

1937-yil 9-sentyabr kuni Bilol Suleyev aksilingilobiy “Alash” partiyasi a'zosi sifatida O'zSSR Jinoyat Kodeksining 67-moddasi bilan aybdor deb topiladi va uni qamoqqa olish haqida qaror chiqariladi.

So'roqlar davomida uning Muhammadjon Tinishbayev, Danshe Adilov, Xalil Dosmuhammedovlar bilan hamkorlikdagi faoliyatiga qayta-qayta urg'u beriladi. Qariyb bir yil davomida u sabot ko'rsatib, faqat haqiqatni so'zlaydi va biror insonga nisbatan yolg'on ko'rsatma bermaydi.

Faqatgina uzoq davom etgan tahqir va qiynoqlar oqibatida 1938-yil 23-aprel kuni to'liq tuhmatdan iborat bo'lgan qog'ozlarga Bilol Suleyevning imzosi qo'ydiriladi. Shu vaqtgacha so'roqlarda nomi tilga olinmagan insonlar va voqealiklar uning ashaddiy jinoyatchi ekaniga dalil sifatida talqin etiladi...

Shu tariqa ayblov bayonnomasida Bilol Suleyev zarariga ishlovchi ayblovlar paydo bo'ladi: QASSRdagi trotskiychi aksilingilobiy tashkilot a'zosi; 1930-yilgi So'zoq va Sarisuv qo'zg'oloni tashkilotchisi; 1935-yildan To'rtko'l xalq ta'limi bo'limidagi hamma kamchiliklar – oliy ma'lumotli o'qituvchilarning ozligi, aholining savodxonlik darajasi pastligi, maktablar kamligi, darsliklar yetishmasligiga aynan u sababchil


Vaholanki, u qisqa muddatda ulkan ishlarni amalga oshirgan haqiqiy ta'lim fidoyisi edi. Misol uchun, 1936-1937-yillarda u Qoraqalpog'iston maorif xalq komissarligida boshlang'ich maktablar uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqdi, maktab darsliklari uchun A.Pushkin, I.Dobrovskiy, I.Turgenovlarning asarlaridan tarjimalar qildi. Bundan tashqari, hukumatning iqtisodiy, ijtimoiy siyosatini xalqqa yetkazish maqsadida ko'pgina ma'ruzalarni ham mahalliy tilga o'girdi.

1938-yil 13-oktyabr kuni Toshkent shahrida tuzilgan mash'um uchlik soat 14:10 dan 14:25 gacha, ya'ni atigi 15 daqiqa ichida Bilol Suleyev ishini ko'rib, uni hech bir dalil-isbotsiz oliy jazoga hukm qiladi. Mash'um qaror shu tunning o'zidayoq ijro etiladi.

Afsuski, keyinchalik qozoq oyidini farzandlarining hayoti ham oson kechmagan. Bilol Suleyevning to'ng'ich qizi Farida 1930-yili o'n bir yoshida vafot etadi. 19 yoshli Jonibek esa 1942-yil armiyaga ixtiyoriy yozilib, 1943-yil mart oyida Smolensk etaklaridagi jangda halok bo'ladi. Faqat kenja farzandi Ozod (1930–1997) turkolog va tarjimon bo'lib yetishib, otasi orzu qilgan mustaqil yurtini ko'rish baxtiga muvassar bo'ldi. Uning nabirasi Jonibek Suleyev (1962) bugun Qozog'istonda ko'zga ko'ringan jurnalist va jamoat arboblari biri sanaladi.

Sovetlar qancha harakat qilmasin, yurtning asl o'g'loni xotirasini hayotdan butkul yo'qota olmadi. Fidoyi ma'rifatparvar Bilol Suleyevning porloq xotirasi bugungi avlodlari va yurtdoshlarining qalbidan barhayot yashamoqda.

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Abdulahad Ma'rufjonov – 1890-yili Samarqand okrugi Xorog rayonida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1931-yil 15-yanvar kuni OGPU organlari tomonidan aksilingilobiy faoliyati uchun hibsga olingan.

1931-yil 25-aprelda uning ishi sudsiz OGPU huzuridagi “Uchlik” tomonidan ko'rib chiqilgan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 4- va 11-bandlari bilan, sovetlarga qarshi bo'lgan “Milliy ittihad” tashkilotida ishtirok etib, aksilingilobiy faoliyat ko'rsatganlikda ayblanib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Jazoni Vorkuta mehnat tuzatuv lagerida o'tagan. 1939-yil 4-mart kuni ozod etilgan.

Rahim Xalilov – 1910-yilda O'zbekiston hududida joylashgan Qog'ri qishlog'ida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1930-yil 8-oktyabrda davlat xavfsizlik organlari tomonidan “Milliy ittihad” aksilingilobiy tashkilotiga a'zolikka ayblanib, hibsga olingan. Tergov ishlari ikki yildan ortiq davom etgan.

1932-yil 10-noyabrda RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 3-bandi – qurolli qo'zg'olonlarda ishtirok etish yoki unga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan harakatlarni bo'yicha aybdor deb topilgan. 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan. U jazoni Uxta-Pechora mehnat-tuzatuv lagerida o'tagan. 1939-yil 19-fevral kuni ozod etilgan.

Turonxon Valixonov – 1900-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. Hibsga olingan vaqtda ishchilar kooperatsiyasi tizimida faoliyat yuritgan. Andijon shahrida yashagan. 1937-yil 29-sentyabrda NKVD Andijon rayon bo'limi xodimlari tomonidan hibsga olingan. U “Milliy ittihad” tashkilotiga a'zolikka ayblangan. RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi, 11-bandi – antisovet tashkilot a'zosi bo'lish yoki uning faoliyatiga ko'maklashish orqali aksilingilobiy faoliyatga yordam berish bo'yicha aybdor deb topiladi. 1937-yil 28-noyabrda Turonxon Valixonov O'zSSR NKVD boshqarmasi huzuridagi “Uchlik” tomonidan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan.

Rasul Qoriyev – 1902-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1918-yildan VKP(b) a'zosi, 1928-yildan Toshkent okrugi ijroiya komiteti hay'ati kotibi, 1937-yil 17-avgustda “Milliy ittihad” tashkilotining sobiq a'zosi bo'lgan.

O'zbekistondagi o'ng trotskiychi millatchilar bilan aloqada bo'lganlikda gumonlanib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 63-, 66-, 67-moddalariga asosan ayblangan. Taassufki, bo'yniga ilingan soxta ayblovlar sabab 1937-yil 2-dekabrda otuvga hukm etilgan. Rasul Qoriyev oradan yillar o'tib, ya'ni 1966-yili reabilitatsiya qilingan.

Said Otoboyev – 1889-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1937-yil 23-sentyabr kuni NKVD bo'limi xodimlari tomonidan hibsga olingan.

U RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi 11-bandi bilan ayblanib, sovetlarga qarshi ish olib borgan “Milliy ittihad” tashkilotida faoliyat ko'rsatganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. 1957-yil 31-yanvarda Said Otoboyev reabilitatsiya qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

YANGI NASHR

“BUYUKLAR HAQIDA 100 TA DALIL”



Bizning g'ururlanishga arziydigan, dunyo ahliga ko'z-ko'z qilsak yarashadigan qadimiy va qiziqarli tariximiz, bebaho qadriyatlarga boy o'tmishimiz, kelajakka qoldirishga munosib yaratqilarimiz bor. “Renessans” kino uyida yurtimiz ziyolilari, yoshlar, jamoatchilik ishtirokida bo'lib o'tgan “Buyuklar haqida 100 ta dalil” deb nomlangan kitob taqdimoti fikrimiz dalilidir.

– Bugun o'tmishdagi ulug'larimiz haqida ko'p narsani bilamiz, – dedi taqdimotda so'zga chiqqan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov. – Amir Temurni buyuk deymiz. Lekin uning buyukligi nimadalgini so'rasangiz ba'zi yoshlar sukut saqlaydi. Bu holatga yoshlar emas, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, ziyolilar aybdor. Chunki yoshlarbop materiallarni yetkazish bizning asosiy vazifamizdir. Sakkiz

tilda chop etilgan mazkur kitobning hajmi dastlabki ko'rinishda 978 bet edi. Buyuklarimizning adabiy merosi bundan-da zalvorli, albatta. Lekin bugun tezkor zamonda yashayapmiz. Kitobni ham yangi, zed avlod uchun tayyorlayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni qisqa materiallarga o'rgatib qo'yganini hisobga olishimiz kerak. Ya'ni, bugungi ishlarimizdagi asosiy mezonlardan biri ixchamlikdir. Bugun fakt va dalillar zamoni. Shu ma'noda, kitobni ixcham holga keltirdik. Kitobcha yoshlarimiz uchun kompos vazifasini bajaradi, deb o'ylaymiz. Unda dunyoga mashhur ajdodlarimiz haqidagi eng muhim, bilishimiz zarur bo'lgan ma'lumotlar jamlangan.

Nashr yanada qiziqarli bo'lishi uchun suratlar va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan tasvirlar bilan boyitilgan. Ushbu tasvirni maxsus QR kodni skanerlash orqali ko'rish mumkin. Kitobda Muhammad

Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi ulug'larimizning tug'ilgan sanasi, asarlari, bunyodkorlik ishlari haqida qisqa va lo'nda ma'lumot bilan birga, bir nechta rangli va rangsiz suratlari ham berilgan.

Tadbir davomida turli yosh va kasb egalari bo'lgan qatnashuvchilar aslo zerikib qolishmadi. Chunki dastur nihoyatda qiziqarli tuzilgan bo'lib, taqdimot avvalida namoyish etilgan sahna ko'rinishi, kitob haqida tasavvur uyg'otuvchi rolik namoyishi, qatnashchilar ishtirokida kitobdagi faktlar asosida tashkil etilgan viktorina, taniqli san'atkorlarning chiqishlari qatnashchilarga manzur bo'ldi. Taqdimot yakunida Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi vakillariga va tadbir ishtirokchilariga kitoblar taqdim etildi.

G.UMAROVA



Javonda “qariyotgan” to‘nlar

Boshlanishi 1-sahifada.

Oradan bir yil o'tgach, uchinchi o'g'limni uylantirganimda “quda chaqiriq” marosimida bisotimdagi to'nlarini qudalar, inilarim, to'yda bel bog'lab xizmat qilganlarning yelkasiga yopdim...

“To'n yopish” otlig' odat-an'ana xalqimizda ming yillarki bor. Hatto bu qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

O'tgan asrning saksoninchi yillarida oliygohda o'qigan kezlirimda poytaxtning “Birlik” mavzesidagi bir xonadonda ijarada turganmiz. Xonadon egasi kattagina qurilish tashkiloti rahbari edi.

Xonadon egalari bir kuni to'yga borib qaytishgach, tungi soat birlarda yaxshigina janjalning guvohi bo'ldik. Xonadon egasi “Akang obro'yimni bir pul qildi. Hammaning yonida menga qora to'n yopdi”, deb ayolini g'ajir, ayoli bo'lsa “Imkoni bo'lmagan, sizni kuyovim, yaqinim, o'zimmiki deb bundayroq to'n yopgan”, deb akasini oqlashga urinardi.

Insonning obro'si to'y yoki tadbirida “yelkasiga yopilgan to'n rangiga qarab belgilanishi”ni o'shanda bilganman. O'sha davrda Xorazmda bu an'ana yo'q edi, keyinroq kirib keldi.

...Kursdoshimiz qizini uzatganida ertalabki oshdan so'ng 90 kishining yelkasiga to'n yopgan (kaminaga ham bittasi tekkan). O'shanda bo'g'cha qilib tugilgan to'nlarini alohida avtobusda keltirishgan.

To'g'ri, ayrimlar nazdida “mensimaslik belgisi” hisoblanadigan qorato'n nasib qilgan egasiga ozmi-ko'pmi xizmat qiladi. Bahor-u kuz salqini, qish sovuq'ida uni yelkaga tashlab, hovliga chiqish va hatto elatdagi to'y-ma'rakalarga kiyib borish mumkin. Paxtalik issiq to'nlar egalari to'zib ketgunicha xizmat qiladi, ammo...

Qorato'nga qaraganda bir necha baravar qimmat zarto'nlar taqdiri boshqacha – ular javonlarda “qarish”ga mahkum. Kim qaysi to'y yoki tadbirida yaltiroq to'n kiyganini ko'rganisiz?

Yana hozirda zarto'nlarining oq rangdagi, bir vaqlar podshohlar-u mulozimlar kiygan turlari, yana salla yoki toj ko'rinishida, ukpar osilgan



bosh kiyimi bilan birga tuhfa qilish rusmga kirmoqda. Narxi bir necha million so'm turadigan bu turdagi to'nlar (sallasi-yu tojini aytib o'tirmay) maktab havaskorlariga yilda bir necha marta kerak bo'lmasa... javonlarga to'zib ketgunicha qamalishga mahkum.

Xalqimizda “Kerakli yukning og'irligi yo'q” degan maqol bor. Ammo hurmat, e'tibor, shaxs mavqeyini belgilaydigan matoh darajasiga aylanib ulgurgan bu rusmdagi zarto'nlar haqida bu gapni aytib bo'lmaydi. Ko'pi bilan davrada besh daqiqa yelkangizga ilasiz, ahli tomoshabin qarsaklarini olasiz va yana qayta bo'g'chaga joylab, uyga qaytasiz va javonga ilib qo'yasiz.

Tamom-vassalom!
Vohalik bir ustoz ijodkorga yetmish yilligi sanasida do'stlari, shogirdlari ozmas – elikta to'n kiygizishgan. Keyinchalik o'sha inson afsus bilan aytgan: “Hurmat qilib shuncha odam yelkama to'n kiygizdi. Rahmat ham-maga. Ammo buncha to'nni nima qilaman? Ayolimning maslahati bilan qirqtasini shaharda aynan to'n bilan savdo qiladigan do'konga olib borib, yarim bahosiga topshirib keldik. Uyda uyulib yotganidan kimgadir yana kerak bo'ladi-ku, deb shunday qildik. Rosti, bu ishimdan juda uyaldim...”

Ustoz ijodkor aytish holat yangilik emas. To'y, yubiley tadbirlarida o'nlab to'nlar egasiga aylangan insonlarning aksari shu yo'lni tutadi. To'n biznesi bilan shug'ullanadiganlarga bu katta foyda. Axir, kuni kecha o'zi falon yuz ming so'mga sotgan to'nni bugun yarim va hatto undan ham past narxda qaytib oladi va ertaga yana baland narxda kimlargadir sotadi.

Jadid bobolarimiz o'z davrida vaqtli matbuotdagi chiqishlarida insonning tashqi ko'rinishini hashamatli liboslar emas, balki ichki dunyosi – ilmi va madaniyati go'zal qilishi va har qanday ortiqcha dabbabozlik ortida isrof yotishi haqida ko'p yozishgan.

To'g'ri, o'sha zamonlarda qorayu zarto'nlar raiyatning odatiy kiyimi edi. Bunda isrofgarchilik bo'lmas edi. Ayniqsa, xon-u sultonlardan olingan tuhfa-to'nlarini kiyish faxr hisoblangan. Ammo bugunda go'yo milliy udumga aylangan “to'n yopish” aynan o'sha dabbababozlik, isrofgarchilikning g'irt o'zginasi.

...Yetti yil oldin bisotimda to'planib qolgan to'nlardan qutulgandim. Bu orada javonimda yana zarto'nlar qatorlasha boshladi.

Ro'zimboy HASAN
jurnalist,
“Do'stlik” ordeni sohibi

TILBILIM

VORONKAning O'ZBEKCHASI NIMA?



Men tilimizga rus tilidan kirgan **voronka** so'zining o'zbekchasini topishga qiynalardim. **Voronka** so'zi hatto “O'zbek tilining izohli lug'ati”ga ham kirgan: “*ichi teshik narsa, naycha*” deb izohlangan.

“Ichi teshik narsa” degani aniq bir buyumni ifodalovchi so'z emas, ya'ni ot emas. *Naycha* esa, voronkaning mohiyatini ifodalab berolmaydi. Chunki *naycha* boshqa narsa. Shuning uchunmi, salkam yuz yillik til tarixida bu idish katta shaharlarimizdan chekka-cheikka qishloqlarimizgacha *voronka* deb atalib keldi. Bomba yoki zambarakning o'qi portlagan joyda hosil bo'lgan chuqurlikni

ham *voronka* deyishgan.

Holbuki, *voronka* so'zining muqobili qadimgi tilimizda bo'lgan. Qayum Karimovning “Qadimgi turkiy til lug'ati” kitobida *ahut* (*angut*) so'ziga shunday izoh beriladi:

Ahut – may va suyuqliklarni quyishda qo'llanadigan asbob, idish, voronka, leyka.

Mahmud Koshg'ariy “Devoni”ning 1-tomida “*Jurt kichik bolsa ahut bādyk ur* – Idish og'zi kichik bo'lsa, katta voronka qo'y” degan maqolni keltiradi va bu maqol kichik ishni katta qilib ko'rsatadigan kishiga nisbatan qo'llanadi, deb izohlangan.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

KIMNING USTIDAN KULYAPSIZ?

Turli hajviy guruhlarining konsertlarida, ijtimoiy tarmoqlardagi saytlarda milliy tariximiz, adabiyotimiz va madaniyatimiz masxaralanishi odat tusiga kirib bormoqda.

Shu paytgacha ham katta-kichik qiziqchilarning chiqishlarida “beldan pastga” e'tibor qaratilgan hazil-huzullar uchrab turardi. Ammo endi bu hazillar to'g'ridan to'g'ri milliylik fonida ko'rsatilmog'da.

Ayrim saytlarda ishtirokchilar o'zbekona libosda, milliylik aks etgan dekoratsiya fonida turli bachkana gap-so'zlarni aytib, sog'lom odamga xos bo'lmagan harakatlarni amalga oshiradi. Hatto, tarixiy qadamlarga borib sharmada kontentlar oladigan yoshlar paydo bo'ldi.

Yoki yana bir misol: g'azallar odatda hijolarga qarab o'qiladi, barmoq vaznidagi she'rlarning ham o'z o'qish qoidasi bor. Ba'zi videolarda ana shu holat kulgi ostiga olinadi (masalan, Ogahiyning mashhur “Ustina” g'azali). O'qiyotganlar esa yana atlasdagi qizlar, do'ppili yigitlar.

Shukur LATIF
Facebook

QADRIYAT

QO'LDADA TO'QILGAN “UCHAR GILAM”LAR

Tog'li Oltay o'lkasining “Beshinchi Pazirik” qo'rg'onidan eramizdan oldingi V-VI asrlarga oid deb taxmin qilingan gilam topilgan. Abadiy muzliklar ichida qolib ketgan nodir ashyoning chirimaganiga faqat past havo harorat sababmiki? Abadiy merosga aylanajak gilamlar bugun ham to'qilyaptimi?

Bu savolga javob beradigan odamni Samarqanddan topdik. “Samarqand – Buxoro ipak gilami” kompaniyasi rahbari Furqat Niyozov ana shunday mo'jizakor gilam to'qish jarayonini hikoya qilib berdi.

Qo'lda to'qiladigan ipak gilam – ekskluziv buyum.

Avvalo, ipak xom holida sotib olinadi, quritiladi, to'laga aylantiriladi. So'ngra yigirilib, qaynatiladi va ranglanadi. Ranglash uchun anor va yong'oq, piyoz po'chog'i, ro'yan ildizi, delfinium guli, islom va haligacha Hindistondan olib kelinadigan (bizning iqlimda o'stirib bo'lmaydigan) indigo o'simligidan tabiiy, toza bo'yoq tayyorlanadi. Ma'lumot uchun, tabiiy rang tayyorlashda bir xil rangni ikki marta olib bo'lmaydi.

Sirtidan qaraganda ipak gilamlar narxi juda qimmat. Nega? Chunki ipakning kilosi 600 ming so'mdan oshiq turadi. Kamiga yigirish, yuvib-tarash, ishlov jarayonida 30 foizi chiqitga ketadi. Tayyor holga olib kelish esa bir

yarim million so'm atrofida mablag' talab qiladi. Daylik, ikki metr kvadratik gilamga 15 kilogramm ipak ketsa, shuning o'zi 20 million so'mga tushadi. Hali qo'l mehnat haqini hisoblamayapmiz.

Ipak gilamni to'qish juda mashaqqatli va toliqtiruvchi ish. To'quvchi har bitta tugun uchun ipni sakkiz marta barmoqlari bilan aylantirib oladi. Bir santimetr kvadratga 150 tadan 300 tagacha tugun tugishi, iplar rangini sxema asosida tez-tez almashtirib, sanab, moslashtirib borishi kerak. Gilamining orqa tomonini ham kuzatib borish uchun uzluksiz oynaga qarab ishlashga to'g'ri keladi. Chunki har ikki tarafi bir xil chiqishi shart.

Ishning bitish muddati ipak



tolasining qalinligi va tugun soniga bog'liq. Besh yuztadan milliontagacha tugun bo'lishi mumkin. Ko'p tugunli va tolasi ingichka gilamlar uzoq vaqt to'qiladi.

Zavodda ishlab chiqarilgan gilamlarda tugun bo'lmaydi. Iplar qirqilib, maxsus yelim bilan zichlanadi. Qo'lda to'qiladigan gilamlarda ip tugilgani bois siltilmaydi. Shuningdek,

ipakni hech qachon kuya yemaydi.

Ahamiyatlisi, bu gilamlar faqat yagona nusxada ishlab chiqariladi. Takrori yo'qligi,

ya'ni betakrorligi uchun uning qiymati yildan yilga oshadi, nodir tarixiy ashyoga aylanadi. Avaylab ishlatiladiganlari esa abadiy muzliklarsiz ham “Pazirik” kabi davrlar oshishiga shubha yo'q.

Bugungi kunda gilamdo'zlik hunarini xotin-qizlarga o'rgatish bo'yicha kurslar ochdik. Ayniqsa, yoshlar orasida qiziqish yuqori. Ipak gilamlarga bo'lgan talab va takliflar ham yil sayin ortib bormoqda. Narxi ham shunga yarasha 10-15 milliondan 100-200 milliongacha baholanadigan gilamlarimiz bor.

Aytish kerakki, Samarqandning ipak gilamlari dunyoning barcha nuqtalariga yetib borgan. Qo'l mehnatiga bo'lgan qiziqish ortidan chet ellardan ham buyurtmalar qabul qilyapmiz. Mahsulotimiz uchar gilam bo'lmasa-da, chiroyi va sifati ertaknamo. Bunday namunalar yurtimiz nomi va xalqimiz san'atini makonlar va zamonlar osha olib o'tmoqda.

Muhayyo RUSTAM qizi
yozib oldi.

Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi va “Jadid” gazetasi jamoasi filologiya fanlari doktori, fond boshqaruv kengashi a'zosi Dilnavoz Yusupovaga padari buzrukvor,

professor Rahmon FARMONOV
vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.



Jadid

Muassislar:



**O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI**



**RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI**



**MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI**



**“SHAHIDLILAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI**

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 169

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 496

Lotin yozuvida – 11 673

Media kuzatuvchilar – 55 364

Buyurtma: G – 740.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 21:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz